



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 2-avgust, № 157 (9052)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



STRATEGIK INFRATUZILMA LOYIHALARI AMALIY BOSQICHGA O'TADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga transport sohasidagi yirik loyihalar bo'yicha axborot berildi.

Iqtisodiyot rivojlanib, hayot sur'ati tezlashgani sari transport aloqalariga talab ham oshaveradi. Toshkent shahriga aviayo'lovchilar oqimi 2030-yilda 15 millionga yetishi kutilmoqda. Lekin bunga hozirgi aeroportning quvvati yetmaydi. Shahar ichida joylashgani sababli uni kengaytirish imkoniyati ham yo'q.

Shu bois Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport qurish rejalashtirilgan. Bugungi kunda xususiy sheriklik bo'yicha xorijiy kompaniyalar takliflari ko'rib chiqilmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar ushbu yirik loyihaning barcha jihatlarini bo'yicha axborot berdi.

So'nggi yillarda yo'l xo'jaligiga ham katta mablag' ajratilib, yangi inshootlar barpo etilmoqda. Avtotransportlar harakatiga qulaylik

yaratish maqsadida muqobil yo'llar qurilishi ham loyihalashtirilmoqda. Bu borada investorlarga jozibador muhit yaratish uchun "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda ishlab chiqildi.

Shularga asoslanib, Toshkent bilan Samarqand o'rtasida muqobil tezyurur magistral yo'l qurish loyihasi bir necha hamkor davlatlar kompaniyalari qiziqish bildirgan.

Mutasaddilar ular bilan o'tkazilgan muzokaralar natijalari va takliflari haqida hisobot berdi.

Davlatimiz rahbari ushbu strategik infratuzilmalarni puxta o'ylab loyihalashtirish va tezroq amaliy bosqichga o'tish zarurligini ta'kidladi.

O'zA.

O'ZBEKISTON TEMIR YO'L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

Qadri do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni — ming-minglab zahmatkash yo'lsoz, quruvchi va muhandislar, energetik va aloqachilar, mashinist va vagon kuzatuvchilari, sohaning barcha ishchi-xizmatchilari va faxriylarini bugungi kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etib, o'zimingiz yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan barpo etilayotgan yangi temir yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, stansiya va vokzallar, aholi va tashkilotlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar xalqimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish, mamlakatimiz tranzit salohiyatini oshirish, iqtisodiyotimiz tarmoqlari va ijtimoiy obyektlarning bir maromda ishlashini ta'minlashda, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyatga ega.

Ushbu qutlug' ayyomda tun-u kun samarali mehnat qilib, ana shunday mas'uliyatli soha ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan ko'p millatli temir yo'l jamoalariga, tizimdagi barcha xizmatchi va xodimlarga o'z

nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli temiryo'lchilar!

So'nggi yillarda milliy taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish jarayonida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat berayotganimiz sizlarga yaxshi ma'lum. Shu boradagi keng ko'lami islohotlar tufayli O'zbekiston temir yo'llari faoliyati tubdan takomillashtirilib, sohada muhim loyiha va dasturlar hayotga joriy etilayotganini mamnuvniyat bilan ta'kidlash lozim. Qisqa muddatda 3 ming 800 kilometrdan ziyod temir yo'l elektrlashtirilib, Buxoro — Urganch — Xiva temir yo'li qurib bitkazilgani, lokomotiv parki zamonaviy texnikalar bilan to'ldirib borilayotgani shu yo'nalishdagi ishlarimiz ko'lamidan dalolat beradi.

Eng muhimi, bunday sa'y-harakatlarimiz uzviy va davomli bo'lib, buning tasdig'ini Toshkent — Urganch — Xiva yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan elektr poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish,

Miskin — Nukus temir yo'l tarmog'ini elektrlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, bu yil aholiga sifatli transport xizmati ko'rsatish, turizmni rivojlantirish maqsadida Samarqand shahridan Urgutga, Toshkent viloyatidagi Baytqo'rg'on stansiyasidan Parkent tumaniga temir yo'l tarmog'ini tortib borish ishlari boshlandi. Shuningdek, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishi bo'yicha yirik xalqaro loyihaning amalga oshirilayotgani nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamiz kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qadri soha xodimlari!

Bugungi kunda temir yo'l transportini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar turi va hajmini ko'paytirish, ularning sifatini oshirish, muhim zamonaviy kommunikatsiya obyektlarini barpo etish bo'yicha hali oldimizda ulkan vazifalar turganini, Yangi O'zbekistonga hozirgi davr talablariga javob beradigan qudratli temir yo'l

sanoati, temir yo'l tarmoqlari va xizmatlari zarurligini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Tariximizda ilgari ko'rilgan bunday ulug'vor va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda biz, avvalo, chuqur bilim va katta mehnat tajribasiga ega bo'lgan, o'z ishi va kasbini chin dildan sevadigan, butun umrini elga xizmat qilishdek oliyanob ishga bag'ishlab kelayotgan siz, jonkuyga va zahmatkash temiryo'lchilarimizga tayanamiz.

Aminmanki, sizlar xalqimizning ana shunday yuksak ishonchidan kuch va ilhom olgan holda yanada samarali mehnat qilib, soha taraqqiyotini albatta yangi bosqichga olib chiqasiz.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik va baxt-u saodat, serqirra faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT

2025-yilning 1-avgust kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video-konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib berildi.

Senat yalpi majlisining birinchi ish kunida senatorlar dastlab "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni muhokama qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmog'ida.

Majlisda davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratiyani va ma'muriy to'siqlarning bartaraf etilayotgani, shu jumladan, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirilayotgani ta'kidlab o'tildi.

Shu bilan birga, senatorlar litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi."

Xuddi shunday jarima solish to'g'risidagi qarorlarni maxsus elektron tizim vositasida rasmilashtirish, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi."

Ushbu qonun bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi, "Ekspert nazorati to'g'risida"gi va "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Bojxona kodekslariga litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

2

MAMLAKAT TARAQQIYOTINING LOKOMOTIVI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yildan buyon mamlakatimizda har yili avgust oyining birinchi yakshanbasi Temir yo'l transporti xodimlari kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda.

Shukuh

Har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati yuksalishida transport kommunikatsiyalari, ayniqsa, temir yo'llar beqiyos ahamiyatga ega. Zero, "po'lat izlar" yotqizilgan manzillarga u bilan birga taraqqiyot ham kirib borib, o'sha joyda farovonlik, obodlik, madaniy va ma'rifiy yuksalish hukm suradi. Shu bois mamlakatimizda transport tizimining muhim bo'g'ini — temir yo'llarni rivojlantirish, yangi liniyalarni qurilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada keyingi yillarda temir yo'l liniyalari barpo etilib, ular tom ma'noda iqtisodiyotimizning asosiy qon tomirlariga aylandi.



Darhaqiqat, Prezidentimizning 2023-yil 10-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda temir yo'l

infratuzilmasini rivojlantirish, yangi yo'llarni qurish orqali transport yo'laklarini kengaytirish taraqqiyotning muhim va strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada tarixiy Buyuk Ipak yo'lining uzundan-uzoq

karvon izlari o'rni zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimlari, xususan, temir yo'llar egallay boshlaydi. Ayniqsa, so'nggi ikki yil davomida temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish, murakkab tog' va cho'l

sharoitlarida yangi temir yo'llarni barpo etish, yuqori tezlikdagi poyezdlar harakatini tashkil qilish, temir yo'llarni elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashish vagonlarini ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab yirik loyihalar amalga oshirildi.

Kecha Toshkent shahrida bo'lib o'tgan temiryo'lchilar kasb bayramiga bag'ishlangan tabdirda bu alohida e'tirof etildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning soha xodimlariga yo'llagan bayram tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamentining rahbari — Prezidentning matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.



Deputatlar — hududlarda

SAYLOVCHILAR OLDIDAGI BURCH VA MAS'ULIYAT

Avval xabar berilganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hududlarda bo'lib, o'z elektorati — saylovchilar oldidagi burch va mas'uliyatni chuqur anglagan holda, bir qator uchrashuvlar o'tkazmoqda. Asosiy e'tibor aholini o'ylantirayotgan masalalarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishga qaratilayotir. Bu bejiz emas. Chunki demokratik islohotlarni ro'yobga chiqarish, ularni huquqiy asosini takomillashtirish, xalqchil qonun loyihalarini ishlab chiqishda aholi bilan ochiq muloqotlar va unda ko'tariladigan takliflar dolzarb bo'lib, deputatlar bundan unumli foydalanayotir.

Xalq vakillari ko'magi bilan amalga oshgan tashabbus

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Barno Berdiyeva, Ruslan Sobirov, Adham Ismoilov Urganch tumanidagi Hidayot mahallasida joylashgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ochilish marosimida ishtirok etdi. Mazkur bog'cha 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ayni paytda 32 nafar bola zamonaviy talablariga javob beradigan sharoitda ta'lim-tarbiya olib kelmoqda. Bog'chada qulay muhit yaratilgan, nutq rivoji, ijodiy fikrlash va faol dunyoqarashni shakllantiruvchi o'quv-tarbiyaviy dasturlar yo'lga qo'yilgan.

Ushbu bog'cha rahbari Barno

Sultonova farzandlarini yolg'iz ulg'aytirgan ayoldir. U ma'lum muddat xorijda ishlab qaytgach, o'z yurtida bolalar kelajagi uchun hissa qo'shish, ta'lim sohasi orqali jamiyatga naf keltirish maqsadida bog'cha tashkil etishga qaror qiladi. Biroq tadbirkor ayol oldida turli to'siqlar, rasmiy hujjatlashtirishdagi muammolar, litsenziyalash jarayonidagi kechikishlar tufayli bog'cha ochish oson kechmadi. Aynan shu jarayonda u Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga murojaat qildi. Deputatlar tomonidan mahalliy hokimiyat, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan o'rnatilgan hamkorlik natijasida tadbirkor ayol o'z orzusini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi.

4



Yurtimiz bo'ylab

YER YUZINING SAYQALI

YOKI MAQOLAGA SIG'MAGAN SAMARQAND

1

Otam oddiy kolxozchi, ammo g'ururi baland kishi edi. Qishloq va qishloqdoshlar sha'ni uchun qadrga ega bo'lgan. Qishloq burch deb hisoblar va mavridi kelganda boshqalarning havasini keltirish maqsadida o'ziga lof ham qo'shib yuborardi.

Qish kunlarining birida hamqishloqlar o'teshaklar bilan tumanning narigi tomonidagi ovulga to'yga borishadi. — Qishloq'imizda maktab qurildi! — deya maqtanadi suhbatlashib o'tirishganida mezbunlarning "og'zi kattasi". — Endi zo'r "kulup" quramiz...

— E-e, keyinda qopketipsilar-ku! — darrov javob qaytaradi otam. — Ancha bo'ldi bizni qishloqqa poyezd kelganiga! Mezbunlar tugul, hamqishloqlarimiz ham yer ostidan bir-biriga ma'noli qarab olishadi, ammo sir berishmaydi.

— Ko'chimboy, lof ham evi bilan-da, — deydi qaytishayotganda Mustaqil bobo. — Ko'changizda eshakarava zo'rg'a yuradi-yu, poyezd deysiz-a-a?

— Molxonadagi temir izlar poyezd yo'li

bo'lmay, nima? — bo'sh kelmaydi otam. — Dunyo bexabarsiz-da, Mustaqil...

Bu javobdan rohatlangan hamqishloqlar kula-kula, eshakka xala bosadilar.

Darhaqiqat, cho'pon-cho'liqlarga oson bo'lsin uchun o'sha paytda molxonadan chuqurgacha 25 — 30 metrcha uzunlikda temir izlar yotqizilgan edi...

O'tgan asrning 60-yillaridagi gaplar bu. Qancha suvlar oqib ketdi undan so'ng. Zamonlar o'zgardi, sovetlar davri tugadi, mustaqil bo'ldik. Ammo bundan atigi o'n yil avval ham bu gaplarga hech kim ishonmas, tushingni suvga ayl deb masxara qilishardi. Qalovi topilasa, xalq qalqasa, asrlarga tatigulik ishlar bo'lishi mumkin ekan o'n emas, ikki-uch yilda ham. Urgut temir yo'li bunga yorqin misoldir. Yo'l O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 10-oktyabrda imzolagan qarordan keyin rejalashtirildi. 2025-yilning 27-may kuni o'tkazilgan taqdimotda esa davlatimiz rahbariga mazkur yo'lning 7 kilometriga temir izlar yotqizilgani to'g'risida axborot berildi. Odamlarning ko'z o'ngida etraklar chingha, afsonalar haqiqatga aylana boshladi.

3

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida
AXBOROT

Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini soddalashtirishga, huquqbuzar tomonidan jarima ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda unga nisbatan imtiyozlar qo'llanilishini, litsenziyalash tartib-taomillari davlat xizmatlari markazlari orqali ham amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yalpi majlis davomida qonun qizg'in muhokama etilib, uning kelgusida tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi yuzasidan fikrlar bildirildi.

Mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirishga hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Senatorlar tomonidan keyingi yillarda mamlakatimizda muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish orqali iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlandi.

Senat a'zolari muvofiqlikni baholash qoidalarini buzganlik uchun ta'sir choralarini kuchaytirish, texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berish mexanizmlarini shakllantirish maqsadida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelayotganiga alohida to'xtalib o'tildi.

Qonun bilan Fuqarolik kodeksiga, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini oshirishga hamda texnik reglamentlar va qo'llanilishi majburiy bo'lgan standartlarga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorlar o'z chiqishlarida ushbu qonun kelgusida muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini oshirishga va iste'molchilar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, yalpi majlis davomida qonun qizg'in muhokama qilinib, huquqiy hujjat tegishli talablarga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan yuridik shaxslarni moliyaviy sanksiyalardan ozod qilish orqali sifatsiz va xavfli mahsulotlar realizatsiyasi hamda iste'molchi cheklashni ham ta'minlashi qayd etildi.

Muhokama yakunida mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

So'nggi yillarda respublikamizda huquqni himoya qilish, jismoniy hamda yuridik shaxslarning vaqt va mablag'ini tejash, turli qog'ozbozliklarning oldini olish, nizolarni taraffalarning yarashuviga asosan tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan huquq institutlari, xususan, mediatsiya instituti, shuningdek, hakamlik sudlari tomonidan nizolarni sudgacha hal qilish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi senatorlar tomonidan ta'kidlandi.

2019-yilda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berganligi qayd etildi.

Biroq sudlarda ish hajmi yildan-yilga ortmoqda, sudga qadar va yoki sud muhokamasining bosqichida mediatiya kelishuvlari soni esa atigi 4,2 foizni tashkil qiladi, bu mediatsiyaning ta'sir doirasini kuchaytirish, sohaga ishonchni yanada oshirish zarurligidan darak beradi.

Mazkur qonun ushbu masalalarning huquqiy yechimi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, "Mediatsiya to'g'risida"gi, "Notariat to'g'risida"gi, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Soliq hamda Oila kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, "Notariat to'g'risida"gi qonunda notariuslar "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunda belgilangan tartibda cheklanmagan mediator vazifasini bajarish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun yangi bob bilan to'ldirilib, mediatsiya sohasidagi vakolatli davlat organi etib Adliya vazirligi belgilanmoqda. Unda Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida mediatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilishi, mediatorlarning kasb etikasi qoidalarini, ularning kasbiy malakasini oshirish tartibini hamda mediatorlarni tayyorlash dasturlarini tasdiqlashi, shuningdek, qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik hujjatlarida mediatsiya qo'llaniladigan sohalar doirasini kengaytirilib, mediatorlarning notprofessional turli chaqirib olishlarida muvofiq qonun bilan muvofiq bo'lish talabi qo'yilmoqda. Mediatorlarning har uch yilda malakasini oshirish zarurati, mediatorlarning malaka komissiyalari tashkil etilishi, mediativ kelishuvni majburiy ijro etishga oid qoidalar kiritilmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning qabul qilinishi nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlashga, mediatsiya sohasining huquqiy asoslarini

mustahkamlash orqali sudlarda ish yuklamasini kamaytirishga, shuningdek, O'zbekistonning biznes yuritish sohasidagi xalqaro reytingdagi darajasini va investitsiyaviy imijini xalqaro darajada yuksaltirishga xizmat qilishini ta'kidlandi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Bundan tashqari, senatorlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda davlatimiz manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning barqarorligini ta'minlash, sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, respublikada aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti bilan bog'liq ruxsatnomalarni berish tartibini soddalashtirish, shuningdek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararni baholash mexanizmlarini aniq belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Amaldagi "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida"gi Qonunda tranzit ruxsatnomasini berish yoki uni berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza olingan sanadan e'tiboran 30 kundan oshmaydigan muddatda qabul qilinishi, zarur hollarda esa mazkur muddat uzaytirilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shu munosabat bilan muhokama qilingan qonun bilan "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida"gi Qonunga tranzit ruxsatnomasining amal qilish muddati ko'pi bilan 90 kun etib belgilanishi kiritilmoqda.

Shuningdek, amaldagi qonunchilikdagi bo'shiqlarni bartaraf etish maqsadida tranzit ruxsatnomasini berish yoki uni berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza olingan kundan e'tiboran yigirma kundan oshmaydigan muddatda qabul qilinishi nazarda tutilmoqda, mazkur muddatni uzaytirishga asos bo'luvchi holatlar hamda uzaytirish mumkin bo'lgan muddat chegarasini aniq belgilab qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, qonun bilan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunga ham tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Senatorlar tomonidan qonunning qabul qilinishi maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti hajmini oshirishga, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Muhokamadani so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlari.

mamlakatimizda mehnat migratsiyasi ko'lami ortib, chet eldan qaytgan fuqarolar soni ko'paymoqda. Shuningdek, O'zbekistonga ham ko'plab chet el fuqarolari tijorat, mehnat qilish maqsadlarida kirib kelmoqda. Ushbu toifadagi shaxslarning ayrimlari orasida ixtiyoriy o'tkazilgan tekshiruv natijalarida inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar mavjudligini ko'rsatgan.

Xususan, 2024-yilda uzoq muddat chet elda bo'lib qaytgan 1,7 million fuqaroning faqat 434 mingi yoki 25 foizi ixtiyoriy ravishda OIV/OITSGa tekshirilgan. Ularning 1 512 nafarida bunday kasallik aniqlangan. Shuningdek, 2024-yilda 12,7 mingdan ortiq chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ixtiyoriy ravishda OIV/OITSGa tekshirilgan hamda ularning 81 nafari bunday kasallikka chalingani aniqlangan.

Inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar ixtiyoriy tekshiruvdan o'tkazilgan migrantlar orasida aniqlangan, tekshiruvdan o'tmagan migrantlarning qanchasida yuqumli kasalliklar borligi noma'lum. Shu jihatdan ushbu qonun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jumladan, uzluksiz to'qson kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan o'n sakkiz yoshdan oltmish yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish belgilanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar majburiy tibbiy tekshiruvdan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan,

mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari esa o'z mablag'lari, ish beruvchining yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan o'tkazilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, OIV/OITS va sil kasalligi aniqlanishi O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalar berishni rad etish uchun asos bo'lishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni borayotgan davlatning tegishli qonunchiligi, ushbu davlatda bo'lish qoidalarini bo'yicha o'qitishni tashkil etish majburiyati xususiy bandlik agentliklariga beriladigan litsenziya shartlaridan biri etib belgilanmoqda.

Senatorlar tomonidan ushbu qonun inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga, aholi salomatligini muhofaza qilishga, mehnat migratsiyasi jarayonida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tildi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shu bilan birga, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun mehnat migratsiyasi sohasidagi xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini ta'minlaydi, xususiy bandlik agentliklari faoliyatini tartibga soladi, ularning mas'uliyatini kuchaytiradi hamda ish beruvchilar va xodimlarga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Qonun bilan xususiy bandlik agentliklarining huquqlari va majburiyatlarini kengaytirish, ish vaqtdan tashqari ishlashning davomiyligini belgilash hamda ish vaqtdan tashqari ish uchun ta'loq tizimini takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Qayd etilganidek, mazkur normalalar mehnat migratsiyasi sohasida qonuniyligini ta'minlashga, migrantlarning

huquqlarini kafolatlashga, noqonuniy faoliyatga chek qo'yishga hamda sohaga xususiy sektorni jalb etishga qulay imkoniyat yaratadi.

Senatorlar tomonidan qayd etilganidek, qonun xorijdagi O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilishga, migratsiya xizmatlarini raqamlashtirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirishga, fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlashga, tashkilotlarda ish unumdorligini oshirishga va xodimlarning daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar tomonidan qonun ma'qullandi.

Keyingi yillarda yurtimizda bolalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning huquqlari va erkinliklarini davlat tomonidan kafolatlashga qaratilgan keng ko'lami ishlohtirish amalga oshirilmoqda.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan muhokama qilingan "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlik yanada liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ana shu ishlohtirish mantiqiy davomidir.

Statistik raqamlarga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yilda 1 911 nafar, 2024-yilda 2 214 nafar voyaga yetmagan shaxs jinoyi javobgarlikka tortilgan va sudlangan. O'tgan yilda ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan jinoyatlar 1 238 ta, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar soni esa 855 tani tashkil qilgan.

Mazkur qonun "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlari ta'min" yilida amalga oshirishga doir davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Qonun bilan Jinoyat kodeksining bir qator moddalariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritilmoqda.

Jumladan, o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, qonunda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati olti oydan bir oygacha qisqartirilishi nazarda tutilmoqda.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonun voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlikni yanada liberalashtirishga xizmat qiladi va o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsga hayotini sudlanganlik tamg'asidan xoli tarzda davom ettirishi uchun sharoit yaratadi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining
Axborot xizmati.

ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASALALAR MUHOKAMASI

Kecha Oliy Majlis Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni yangi bosqichga

Aks sado

Senatorlar ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida o'zlarining fikrlarini bayon etdi.

ko'tarishga yo'naltirilgan bir qator masalalar ko'rib chiqildi.

Senatorlar ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida o'zlarining fikrlarini bayon etdi.

OILALAR TINCHLIGI VA SALOMATLIGI SARI
QO'YILGAN XAYRLI QADAM

Gulnora MA'RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi:

— So'nggi paytlarda dunyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda ham aholi orasida OIV infeksiyasini yuqtirish holatlari ortib bormoqda. Tahilllar buning bir qancha sabablarini oshkor qilmoqda. Shunday omillardan biri va eng asosiy sifatida keyingi yillarda migratsiya jarayonlarining tez sur'atlarda o'sib borayotganini aytish mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda 5,1 milliondan ortiq fuqarolar OIV/OITSGa tekshirilgan. Shundan uzoq muddat chet elda bo'lib qaytgan 1,7 million fuqarodan faqatgina 434 ming nafari yoki 25 foizi ixtiyoriy ravishda OIV/OITSGa tekshiruvdan o'tgan.

Tekshirilganlarning 3 ming 903 nafari OIV/OITS kasalligi aniqlangan bo'lib, ulardan 1 ming 512 nafari yoki 39 foizini chet elda bo'lib qaytgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yildagiga nisbatan 19 foizga o'sgan.

Shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar orasida 12,7 ming kishi ixtiyoriy tekshiruvdan o'tgan bo'lib, ulardan 81 nafari OIV infeksiyasi aniqlangan.

Afsuski, mehnat muhojirlari orasida aniqlanayotgan yangi holatlar soni oldingi yildagiga nisbatan 23,7 foizga oshgan.

Mehnat muhojirlari orasida bunday illatga chalinyotganlar sonining ortib borayotgani xavotirli, albatta. Chunki Vataniga qaytgan bunday fuqarolarning hech bo'lmaganda yana bir kishiga bu illatni yuqtirish xavfi mavjud. Xuddi shunday OIV infeksiyasi aniqlangan

muhojirlardan 903 nafarining turmush o'rtog'i (eri yoki xotini) OIVga tekshirilganda, ularning 262 nafari ushbu kasallik aniqlangan.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonda OIV bilan yashovchi 51 ming 87 nafar shaxs rasman ro'yxatga olingan.

Hozirda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, uzoq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan mamlakatimiz fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarga majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish mexanizmi mavjud emas.

Shu bilan birga, bugungi kunda xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijga ishga yuborilayotgan fuqarolar borayotgan davlat qonunchiligi va unda bo'lish qoidalarining o'qitilishini nazorat qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlar ham yo'lga qo'yilmagan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda mazkur qonun ishlab chiqilgan bo'lib, unda uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan 18 dan 60 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

Uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va mamlakatimizda doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIVga majburiy tibbiy tekshiruvdan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIVga majburiy tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIV/OITS yoki sil kasalligi aniqlanganligi O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalar berishni rad etishga asos bo'ladi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan yurtodoshlarimiz, respublikamizda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun yurtimizga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIVga majburiy tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIV/OITS yoki sil kasalligi aniqlanganligi O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalar berishni rad etishga asos bo'ladi.

NIZOLARNI HAL QILISHDA XALQARO
STANDARTLAR JORIY ETILADI

Abdulkhamid ESHMURATOV,
Oliy Majlis Senatining
Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi:

— Bugungi zamonaviy dunyoda huquqning nozik jihatlariga ham e'tibor qaratilmoqdaki, bu inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida baholashga, qadriini ulug'lashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda huquq muhofazasi, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqt va mablag'ini tejash, turli qog'ozbozliklarning oldini olish, nizolarni taraffalarning yarashuviga asosan tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan huquq institutlari, xususan, mediatsiya instituti va hakamlik sudlari tomonidan nizolarni sudgacha hal qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, 2019-yilda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun imzolangan bo'lsa, Prezidentimizning 2020-yil 17-iyunda qabul qilingan "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi.

Aytish joizki, jahonning rivojlangan mamlakatlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning muammolarini hal etish maqsadida nizolarni sudgacha hal qilishning yuqori samarali, muqobil zamonaviy yo'nalishlaridan keng foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotga xorijiy investorlarni jalb etishda yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishni yoki sud muhokamasining har qanday bosqichida nizolashayotgan taraffar

uchun o'zaro kelishuvga va maqbul yechimni topishga erishishni ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Amerika va Yevropa davlatlarida nizolarni mediatsiyani qo'llagan holda sudgacha hal etish umumiy ishlar hajmining 70 — 80 foizini tashkil qiladi, O'zbekistonda 2019-yilda mediatsiya instituti joriy etilgan bo'lsa-da, 2023-yilda nizoning sudga qadar bosqichida atigi 310 ta mediativ kelishuv rasmiylashtirilgan.

Sud jarayonidagi mediatsiya esa fuqarolik ishlarida 0,2 foiz

(2023-yilda jami ko'rilgan 943 892 ta fuqarolik ishining 2221 tasi mediativ kelishuv tuzish bilan yakunlangan) va iqtisodiy ishlarda atigi 1,8 foizlik (2023-yilda jami ko'rilgan 271 748 ta iqtisodiy ishning 5 125 tasi mediativ kelishuv tuzish bilan yakunlangan) ko'rsatkichda xolos.

Sudlarda esa ish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2021-yilda fuqarolik sudlari tomonidan 518 087 ta ish ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2023-yilda 943 892 taga yetib, ikki yil ichida 46 foizga oshgan.

Sudga qadar va sudgacha rasmiylashtirilgan mediativ kelishuvlar taqqoslanganda, sudga qadar rasmiylashtirilgan mediativ kelishuvlar soni atigi 4,2 foizni tashkil qiladi.

Mediativ kelishuvlarning, asosan, sudda rasmiylashtirilishi aksariyat hollarda haqiqatan ham taraffar kelishib, mediativ kelishuv tuzayotganini emas, to'langan davlat boji qaytarib olish maqsadida mediativ kelishuv tuzayotganligini ifodalaydi.

YER YUZINING SAYQALI

YOKI MAQOLAGA SIG'MAGAN SAMARQAND

54,5 kilometr uzunlikdagi temir yo'l ikki yilga yetar-yetmay tiklandi hisob.

54,5 kilometr! Ot-arava yoki mashina yo'li emas — temir yo'l. Yana qayerda? Mamlakatimizning Tojikiston bilan chegaradosh sarhadlarida!

Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi "MAN" zavodi yaqinida boshlangan temir izlar "4R — 238" avtomobil yo'lini kesib o'tib, Zarafshon yoqalab, Jomboy, Samarqand, Toyloq tumanlari oralab, daryo ko'prigidan hatlab, Urgutga yetdi. Yo'l o'tgan ovullarda bekatlar tashkil etildi, 2 ta zamonaviy vokzal, Urgut shahri va "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida 2 ta yuk stansiyasi, ikkita temirbeton ko'priki barpo qilindi. Urgutning Tojikiston bilan chegaradosh "Jartepa" chegara bexoxona posti yaqinida qurilayotgan bekat hademay tojikistonlik birodarlarimizga yurtimiz bo'ylab temir yo'l orqali sayohat qilish imkonini beradi.

Temir yo'l ishga tushgach, uning logistik imkoniyatlari ham odamning havasini keltiradi. Birinchidan, mahsulot tashish xarajatlari arzonlashadi. Shu paytgacha mahsulotni mashinalar olib kelib, Samarqanddan yuk poyezdlarga ortgan tadbirkorlar endi bu noqulaylikdan qutulib, mahsulotni dalaning o'zida yoki korxonasi ostonasida turib vagonlarga joylayveradi. Ikkinchidan, har kuni olti ming yo'lvochi, to'rt ming tonnagega yuk tashish imkoni paydo bo'ladi. Uchinchidan, aholining uzog'i yaqin bo'ladi, sayyohlik darvozalari katta ochiladi.

Temir yo'l atroflarini obod etishda tadbirkorlar ham faol ishtirok etmoqda. Birgina tadbirkor Anvar Temirovning o'zi besh gektar maydonda go'zal majmua qurayotir. Unda zamonaviy temir yo'l va avtovokzal, IT-park, 200 o'rinni mehmonxona, 300 o'rinni xususiy maktab, 200 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi, oilaviy poliklinika, bir nechta ko'p qavatli turarjoy binolari bor.

2

Bu Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlaridan bir shingil, xolos. Hammasini ta'riflash uchun esa, shoirona tilda aytganda, yuzta Firdavsiy kerak. Qutlug' bu zamanga qadam qo'ygan kishi, bir emas, o'n emas, yuzlab muhtasham o'zgarishlarning guvohi bo'ladi: har qadamda ravon ko'chalar, uylar, korxonalar, bog'lar, xiyobonlar... va... va hammasidan quvonchlisi, odamlarning yuz ko'zlaridagi mahvas sevinchlar, shijoatlar, o'ziga, ertasiya mustahkam ishonch, yashash ishtiyoqi, hayotga muhabbatning porloq shu'larlari...

Haqiqatan ham, so'nggi yillarda Samarqandda yuz berayotgan katta evrilishlar har qanday odamning ko'ksini Urgut tog'lariga qadar yuksaltirib yuboradi.

"Har ko'kak o'z suyg'an tuprog'ini, har toyochoq o'zi suv ichgan bulog'ini maqtaydi", deydlar. Men esa samarqandlik bo'lganim uchungina ardoqli qo'rg'onimga ziyoda ta'rif berayotganim yo'q. Qolaversa, Samarqand unday maqtovlarga muhtoj ham emas. Men, esi kirganidan buyon sodir bo'layotgan yangiliklarni baholi qudrat kuzatib kelayotganlarning biri sifatida dilimdagi inonimni tilga o'lyapman, xolos. Esimni taniy boshlaganimga esa, mana, Xudoyimiga shukrlar bo'lsinki, yetmish yildan oshdi. Sho'ro zamon, mustaqillik, undan keyingi yillar — hammasi ko'p qismli kinodek tizilish turibdi ko'zim oldida. Bu kinoga nigoh tashlaguday bo'lsam, birda etim uvishadi, birda munavvar quvonchlariga, muattar o'ylarga cho'maman. Esilganda, e't uvishidagina bolalik, muzdary suv-loyga botib, tamaki ekishlar, so'fi azon aytmay ko'zlarini ishqalab dashtga jo'nashlar, tuxum pishidigan yoz jazirasidagi eshaklarni motashitirib somon yanchishlar, tomchilar chakillab turgan zavq sinfonalarida yirtiq choponlarga burkanib darsda o'tirishlar... Mayli, u zamonlar oqiblarida qoldi, o'tgan ishga salovat. Lekin yaqinlarda ham shunday ayanchli ko'rinishlar bor ediki, eslasang, eting uvishib, varajga qo'ziydi vujudingda. Masalan, yo'l azoblari.

E'tibor qiling, Toshkent — Termiz katta trassasidan Urgut shaharchasiga 15 kilometr yo'chiqadi, yo'yoq. Ammo Toshkentdan Samarqandgacha bir arab, yuz bo'lsa, mana shu 15 chaqirim — o'n emas, yoz emas, ming azob edi! Bir qarich tekis joy yo'q, to'rt tarf misoli shudgor, mashina tugul, trakorniym "ichi tushib" ketardi "tuxum korobka" deyilmish o'ydim-chuqur ko'chadan o'tguncha. 20 — 30 yil emas, 8-9 yil avvalgi ahvol bu.

Endi-chi? Endi avtoavariyalar, qoidabuzarliklar ko'payib ketganidan, bir necha joyga yo'lchiroq — svetoforlar o'rnatilib, tezlikka cheklovlar belgilandi. Yo'l oynadek bo'lgach, haydovchilarning degan zavqi toshib, gazni bosgisi kelib ketar ekan-da!

Ha, 8-9 yil orasida necha zamonlar tizza bo'yi chang-loyga belanib yotgan ilon o'tmas ko'chalar tekislandi, asfaltlandi, chiroy ochdi. Bo'sag'aga qadam qo'ysang, boshing "taq" etib eshik peshtoqiga uriladigan yetim uylar o'rnida serqavat, sersavat imoratlar qurildi. Daydi shamol shuvoqlarni koptokday dumalatib yurgan dashtlarda 9 — 12 qavatli binolardan iborat yangi shahar paydo bo'ladi. "Mahallada dud-dud gap" kinosidagi farishtachehra momolarga o'xshash buvilirimiz baland uylar peshayvonda yelpinib o'tirishibdi — surayyo xayollar og'ushida hukumatga duolar aytib.

Gap Urgutdan boshlangani uchun, keling, tuman qiyofiga doir ayrim chizgilarga nigoh tashlaylik. Bundan 15 — 20-yil burun bu makonda tamaki zavodidan bo'lak sanoatga doxil tilga olgulik korxonani uchratish anqoning urug'i edi. Uyam nomiga tamakini chala-chulpa fermentatsiya qilardi, xolos. Tugma topsang, igna, igna topsang, tugma qidirarding.

Endi-chi? Aytсам, eldan uzoq ayrim "og'a"lar, "Eh-he, Urgut jannatga aylanib ketgan ekan-u, bexabar qolibmiz-da", deya mug'ombirona merovushlari mumkin. Noshukr deymizmi, xudbinim, ishqilib, mazkur to'daga mansublar hamisha, hamma zamonlarda bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi. Qolaversa, nufuzi 40 millionga yaqinlashayotgan mamlakatda ikki-uchta hasadog'ning uchrab turishi ham tabiiy-da. Bundan fojia yasash yoxud tashvishga tushishga

hojat yo'q. Bobolarimiz aytganlar-ku, har insonning do'st-u dushmani, har o'kaning gul-u tikani bo'ladi, deb. Demak, yutuqlarningdan boshi osmonga yetgunchalar qatorida alamzadalarning bo'lishi, bog'ingda ungan har gul ularning badaniga tikanday qadalishi ham yanqilik emas. Yomon baliq suv loyqalata, yomon mo'ridan achchiq tutun chiqadi, vijdonsiz kimsa esa mahalla bulog'ini bulg'amoqchi bo'ladi. Ammo bilimydiki, il vovullagani bilan tog' qulmaydi, bir kesak bilan daryoni loyqalataish mumkin emas.

Xullas, tuzingni yeb, tuzlug'ingga tupurguchilarga Xudoyimdan insof so'rab, ularga bobolarimizning "Tikan bo'lib oyoqqa qadalguncha, gul bo'lib ko'krakka sanchil" degan nasihatini eslatamiz-u, yana Urgutga qaytamiz.

Bittagina "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'zi har qanday kishini hayratga soladi.

Uyog'ini so'rasangiz, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini" degan gap bundan 7-8-yil avval bir odamning tushida ham yo'q edi. Ilk bor Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan iste'molga kiritildi shukhli bu ibora. 2017-yil 12-yanvarda davlatimiz rahbarining Urgut bo'yicha maxsus Farmoni qabul qilindi-yu tom ma'noda yangi davr, yangi hayot boshlanib ketdi qadim zaminda. Shu o'rinda, kimdir bilib, kimdir bilmaydigan bir raqamni eslatay: Urgut mamlakatimiz qishloq tumanlari ichida nufuzi balandligi jihatidan karvonboshi hisoblanadi — aholisi 600 mingga yaqin. 600 ming! Bu Tinch okeani janubidagi Tonga degan mamlakat aholisidan besh barobar ko'p, degandir. Yer maydoni esa do'ppidaygina. Shuniyam yarmi tog'-u, yarmi toshloq. Osonmi bunday sharoitda 600 ming jonning tirikchilik qilmog'i? Ammo mehnat qancha og'ir bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi; mehnat ham egiz-egiz, davlat ham egiz-egiz; "mehnat qilsang, yasharsan, katta-katta osharsan", deyilmish sharqona hikmatlar qanchalar mukammal ekanini ko'moqchi bo'lsangiz, Urgutga boring. Ishning ko'zini topgan, mehnatda toblangan, mehnatda sinalgan, mehnat bilan toshda gul undrayotgan odamlarni ko'rasiz, ko'rib hayratlarga ko'milasiz. Mehnatning tagi rohat, ekaniga imon keltirasis. Mehnatsiz baxt kelmasligi-yu mehnat qilgan odamlarning tog'dek ko'krak kerib yurishlariga dil-dildan havasingiz keladi.

Endi ayrim raqamlarga murojaat qilamiz. To'g'ri, raqamlar gohida zerikarli tuyuladi. Vaholanki, raqam — bu g'arq pishgan shig'il-shig'il mevalari ko'zni qamashtiruvchi mevazor bog'. Raqamlar timsolidagi mo'l hosil lazzati dillarni yayratadi. Prezidentimizning yuqorida nomi tilga olingan Farmonidan keyin ikki-uch yil ichida "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida qiymati 402 million dollardan ziyod 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgani, 313 million dollarlik 55 ta loyiha bo'yicha ishlab chiqarish boshlangani, 4,5 mingdan ziyod kishi ish bilan ta'minlangani kabi shoyon voqealar shavqini raqamlarsiz ifodalab bo'ladimi? Yoki bu yerda tashkil etilgan korxonalar tomonidan gaz plitalaridan yengil sanoat va charm-poyabzal tovarlarigacha, gilamlar, gigiyena vositalaridan elektr texnikasi buyumlari singari 220 turdagi mahsulotlargaicha ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani-yu, faqat 2020-yilning o'zida 1,2 trillion so'mlik mahsulot tayyorlanib, 30 million dollarlik qismi eksport qilingani-chi?

Bog' jamoli bog'bondan, g'ozlar yo'lbo'shchisiz uchmaydi, deganlari shu emasmi? El og'asi elni o'ylaydi, elga suyanadi, elim, xaydi. El kuchi esa sel kuchi. Tun-u kun elim, xalqim, Vatanim deb kuyungan Prezident Samarqandga qilgan tashrif chog'ida qayta-qayta Urgutda bo'ladi. Erkin iqtisodiy zonada bajarilayotgan ishlarni tahlil qildi, tavsiyalari berdi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi.

Shu kunlarda umumiy yer maydoni 1559,3 gektar bo'lgan mazkur zaminda umumi qiymati 1540,6 million dollarlik 162 ta loyiha ustida ish olib borilmoqda. Rejaga ko'ra, 12 617 ta yangi ish o'rni yaratilishi kerak. Loyihalarning 41 tasi yengil sanoat, 12 tasi charm-poyabzal, 22 tasi qurilish materiallari, 31 tasi oziq-ovqat, 16 tasi kimyo, 4 tasi farmatsevtika, 16 tasi elektrotexnika sanoati yo'nalishidadir. Hozirgacha 700 million dollarlik 84 ta loyiha ishga tushirilib, 6 618 ta yangi ish o'rni yaratildi. Yana 78 ta loyiha qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda. Qiymati 840,7 million dollarga teng bo'lgan mazkur loyihalar oxiriga yetkazilganidan keyin 5 934 ta yangi ish o'rni paydo bo'ladi.

To'g'ri, Urgut jannatga aylanib ketgani yo'q. Yechimini kutib turgan masalalar, yillar davomida javobsiz qolgan savollar oz emas. Ta'mirlalab ko'chalar, maktablar, bog'chalar, suv, gaz, elektr toki bilan bog'liq muammolar, katta yo'ldagi sun'iy to'siqlar, ba'zilarining "mendan ketguncha..." qabilidagi ish yo'sinlari. Masalan, erkin iqtisodiy zonada qurilgan ko'p qavatli uylarning kanalizatsiya tizimidagi nosozliklar qancha odamlarning dilini xufton qildi. Hali asfalt tugul, shag'al yo'tqizilganicha ichki yo'llar ham oz emas. Ammo yuz yillar davomida so'lib-so'limay, quvrab-quvrolmay arasatda qolgan bog'larning gullarga burkanayotgani, rayonlar hidiga ko'milib borayotgani bor gap. Bor haqiqatlarning yana biri shuki, jinday lofi bilan aytganda, Urgutda odamning jonidan bo'lak hamma narsa ishlab chiqarilaypti. 8-9-yil ichida erishildi shularning hammasiga. "Poyezd keldimi — keldi. Endi aeroport qurildi!" degan shov-shuvlar yuribdi Urgutda. Chunki mana bunday bir latifa ham bor-da.

Allaqaysi uzoq-yaqin zamonda to'rt urgutlik Oyga boribdi. Mayiz-yong'og'ini sotib, bozor o'charini bitirib, aeroportga kelib, Moskva gacha chipta so'rabdi, bahona-yu sabab Maskoviyam bir ko'rib ketaylik, deb. Chipta yo'q. Leningradga so'rashibdi. Yo'q. Kiyev, Minsk, Toshkent, xullas, sobiq sho'ro hududidagi katta shaharlarning hech biriga chipta topilmabdi. Samarqandga bormi, deyishgan ekan, "Samarqand, o, Amir Temur!" hayajonlanib ketibdi kassir opa. "No-no, Samarqandga samolyot uchmaydi", debdi keyin. Unday bo'lsa, Urgutga to'rtta bilek bering, debdi yigitlarning biri. Shunda kassir opa, Verxniy Chinargami, Nijniy Chinargami, dermish... Vaholanki, oydagi kassir opa tilga olingan

Verxniy Chinar bilan Nijniy Chinar deyilgunchi manzil orasi aslida 4-5 kilometrdan oshmaydi. Shugina joyda desangiz, bir emas, ikkita aeroport bor emish-da!..

Lekin ko'rasiz, hademay bu latifayam haqiqatga aylanadi!

3

Gap aeroportga yetgani bois, Samarqandning havo darvozasi — Samarqand aeroportining qayta tug'ilishi haqida gapirmaslik mumkin emas. 1967-yilda qurilgan aeroport zamonadan juda orqada qolib ketgani ayon haqiqat edi.

Davlatimiz rahbari 2019-yilgi tashrif chog'ida bu manzili tamomila boshqatdan qurish haqida ko'rsatma berdi.

Yangi aeroport alloma bobomiz Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadedi Ko'ragoni" kitobi shaklida barpo etildi. Binoning balandligi 25, eni 175 metr. U zamonaviy terminal, uchish-qo'nish yo'lga, turargoh va boshqa obyektarga ega.

Avvallari kuniga 400 yo'lvochiga xizmat ko'rsatgan aeroport endilikda 800 nafar yo'lvochiga xizmat ko'rsatmoqda. Aeroportda kargo xizmatlari yo'lga qo'yilib, turli kattalikdagi samolyotlar uchun 24 ta turargoh ham barpo etilgan.

Mazkur aeroport 2024-yilning o'zida 1,38 milliondan ortiq yo'lvochlarga xizmat ko'rsatdi, bu 2023-yildagi ko'rsatkichdan 37 foiz ko'pdir.

Bugun Samarqand zamonining hamma qishlog'u kentlarida bir-biridan obod manzillar ko'paydangan ko'payib bormoqda. Suluv manzaralarni ko'rmoq uchun Zarafshon daryosining Ravotxo'ja ko'prigi orqali Urgutdan shundoq Bulung'ur yoki Jomboyga o'tib, atrofga bir tavajjuh etmoq kifoya. Jomboy zavodidan chiqayotgan avtomobillar, Bulung'ur tumanida yetishtirilayotgan meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash yo'lga qo'yilgani yoki Samarqand tumanining "Qorasuv" massivida yangi shaharcha paydo bo'lgani kimni sevintirmaydi, deysiz. Yangi shaharchaning birinchi g'ishti 2018-yili qo'yildi. Tumaning 50 gektar yer maydoni Samarqand shahriga o'tkazilib, ko'p qavatli uy-joylar va ijtimoiy soha obyektlari bunyod etish rejasiz tuzildi. Va hademay bu yerda 184 ta 7, 12, 14, 15, 16 qavatli va 2 ta 25 qavatli uy qad rostladi.

Mazkur turarjoylarning fasadi uch qavatli qoplamadan iborat bo'lib, bu xonadonlarning qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi.

Massivda 2340 o'rinni 2 ta maktab faoliyat ko'rsatmoqda. 1600 o'rinni yana bitta maktab yaqinida ishga tushadi. 800 o'rinni 22 ta oilaviy bog'cha, 450 o'rinni 2 ta davlat bog'chasi, 1 ta oilaviy poliklinika, 1 ta tug'uruxona, 2 ta xususiy klinika, 2 ta bank shoxobchasi, 1 ta futbol akademiyasi aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Yana 1500 o'rinni 5 ta bog'cha, 32 gektar maydonda istirohat bog'i, 6 ta sog'lomlashtirish markazi, 2 ta o'yingoh, 14 ta ko'ngilochar maskan quriladi.

Keyingi yillarda dunyoga kelgan shohona qo'rg'onlarning yana biri "Shirin" massividir. Bu manzilingiz muallifi ham hurmatli Prezidentimiz bo'ladi, deyishadi shirinliklar.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 6-iyun kuni Samarqandga tashrif paytida Zarafshon daryosi bo'yida quriladigan "Shirin" massivining master-reja taqdimoti bilan tanishdi va shu kundan e'tiboran oqimodli ishlari qizib ketdi bu manzilda ham.

Qo'rg'onda 600 000 xonadonli 254 ta uy-joy, 15 ta maktab, 17 ta bog'cha, 5 ta tibbiyot muassasasi, 5 ta mehmonxona tashkil etilmog'uda.

Shuningdek, 19 ta ishlabarmonlik va biznes markazi, 36 — 52 qavatli imoratlar ko'kka bo'y cho'zadi.

Yana bir manzil uzoq yillar e'tibordan chetda qolgan Ko'ksaroy tarixiy shaharchasi edi. Bugun tanib bo'lmay darajada chiroy ochildib berayotgan shaharchada 50 dan ortiq uylar, 16 ta multifunksional bino, sohil bo'yida 30 ming o'rinni 2 ta masjid, vertikal zoopark, akvapark, savdo markazi, ekopark, ochiq va yopiq suv havzalari, sport majmuasi, yoshlar markazi, Mirzo Ulug'bek ilmiy markazi, universitet, monorels, ya'ni yer usti metrosi bunyod etilayotir.

Bor-yo'g'i uch yilda qad rostlagan "Boqiy shahar" esa qadim Registon yoxud Amir Temur majmualari kabi tarix sahifalarini mangu bezab turgusidir. Boqib to'ymaysi, boqib yayraysiz, ta'zimlar qilgizgiz keladi bunday mahobatli majmua yaratuvchisi bo'lgan iste'dod sohibi-yu, qo'l gul bunyodkorlarga.

Qiyosi yo'q bu majmua jodkori ham davlatimiz rahbari ekan barchaga ma'lum. 2019-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqand tumaniga qarashli eshakk eshish kanali bo'yidagi 212 gektar maydonda majmua qurishga kirishildi. Avvalo, tajribali me'mor va muhandislardan iborat xalqaro jamoa jalb etilib, puxta loyiha ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari bu yerda bir necha marta kelib, qurilishni milliy me'morchilik analari va odamlarga qulaylik jihatidan takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Bunyodkorlik ishlarida malakali quruvchilarimiz bilan birga Turkiya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlarning yetuk mutaxassislari ham ishtirok etdilar.

Pandemiya davridagi qiyinchiliklarga qaramay, qisqa vaqtda qurib bitkazilgan majmuaning har qirichida o'lim tarix, Buyuk Ipak yo'li va turli davrlarga oid tarixiy manzaralar aks etirilgan. Bezaklarda qadimiy Afrosiyob devorlarida saqlanib qolgan Sug'd davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakat elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan. Majmuaning qadimiy bozor qismida mamlakatimizning barcha hududiga xos 40 ta hunarmandchilik ustaxonasi qurilgan. Bu ustaxonalarga kelgan sayyohlar butun O'zbekiston bo'ylab sayohat qilgandek bo'ladi. Yog'och o'yimakorlik ustalari, kulollar, zargarlar, gilam to'quvchilarning ish jarayonlarini ko'rib hayratga tushadi.

Markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress xoll, "Boqiy shahar", amfiteatr va yana ko'plab boshqa inshootlar mavjud. U yiliga 2 million turistga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Majmuadagi zamonaviy mehmonxonalar

va Kongress xoll allaqachon yirik anjumanlar o'tkaziladigan manzilga aylandi. 2022-yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari uchrashuvi o'tkazildi.

2023-yilda Butunjahon turizm tashkilotining Bosh Assambleyasi sammiti, YTTB boshqaruvchilarining yillik yig'ilishiga ham Samarqand mezbonlik qildi. Bundan tashqari, BMT va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar forum va anjumanlari ushbu majmuada o'tkazildi.

2025-yilda YUNESKO Bosh Assambleyasining 43-sessiyasi ilk bor Parijdan tashqarida Samarqandda o'tkaziladi.

4

Samarqand! Yer yuzining sayqali bo'lgan avliyo shahar.

Antik mualliflar asarida Marokanda, Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy kitoblarida "Semizkent" deyilgan bu qadim shahar o'tmishda ne-ne voqealarni boshidan o'tkazmagan, deysiz. Miloddan avvalgi IV asrda Sug'd davlatining, keyin somoniylar davlatining, undan so'ng Amir Temur, shayboniylar, 1925 — 1930-yillarda O'zbekistonimizning poytaxti bo'lgan shahri azim. Iskandar Maqdonli, Qutayba ibn Muslim, Chingizxon tomonidan istilo qilingan, so'ngra bir yarim asr davomida chor Rossiyasi va sho'rolar bosqini...

Necha bor yakson bo'lib, necha bor tiklangan qahramon shahar, qaddi tog' shahar, mo'tabar shahar — bugun aholisi 4,5 millionga yetay deb qolgan yirik viloyatning ma'muriy markazi. 14 ta tuman, 2 ta shahar, 1901 ta qishloq, 1126 ta mahalla, 88 ta shaharcha mavjud uning keng quchog'ida.

Tarixiy manbahunoslar Samarqandni miloddan avvalgi VI asrda tashkil topgan desalar, mo'zshunoslar uni Vavilon, Fiva, Afina, Rim kabi ulug' shaharlar bilan tengdosh, deydlar.

Sohibqiron Amir Temur 1370-yili Samarqandni o'z saltanatining poytaxti qilib tanlaganda, mo'g'ullar talonidan keyingi aftodah kenti qayta tiklashdan ko'ra, yangi shahar bunyod etishni ma'qul topadi va Afrosiyob xarobalarining janubiy tomonida yangi shahar barpo etadi.

Samarqandda birin-ketin bir-biridan go'zal, betakror obidalar — jome masjidlari, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Amir Temur, Shohizinda kabi maqbaralar bunyod etiladi, shahar atrofida bahavo, xushmanzara 12 ta bog'-saroy barpo qilinadi.

Garchand 2007-yilda Samarqandning 2750-yilligi keng nishonlangan bo'lsa-da, shaharning chin tarixi bu emasligi ko'pchilikka ma'lum edi. Shu bois tarixni o'rganish davom etdi va yaqinda Samarqand arxeologiya instituti direktori Mo'minxon Saidov, O'zbekiston — Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi a'zolari M. Isomiddinov, Klod Rapen hamda M. Hasanov tomonidan aniqlangan yangi ma'lumotlar e'lon qilindi. Olimlar Ko'ktepa va Afrosiyobda topilgan materiallarni qayta tahlil qilish orqali bundan uch ming yillar oldin ham bu yerda yirik shahar bo'lganini aniqladilar. O'rganishlar o'sha paytlari bu manzil shahar hokimining qarorgohi, ibodatxona va boshqa ko'plab mahobatli inshootlarni o'z ichiga olgan yirik shahar bo'lganini tasdiqladi. Bu holat "Avesto'da tilga olingan "Gava Sug'uda" va "Sug'd" tushunchalari bilan uyg'unlashib ketadiki, buyam hozircha hammasi emas. 2001-yili YUNESKoning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga "Samarqand — madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritilib, muhofazaga olingan. Qadim kenting o'tmishiga oid ochilmagan sirlar qanchalik hozircha yolg'iz Yaratganning o'ziga ayon...

5

Yer yuzining sayqali — Samarqand uzoq tarixi, go'zal ko'rk-u tarovati barobarida ajib analarni o'z bag'rida avaylab asrayotgani bilan ham hurmatga sazovor. Misol uchun, tramvay ham bugun mamlakatimizning faqatgina mana shu kentida mavjud. Tramvay yo'li davlat rahbarining 2017-yilda Samarqandga qilgan tashrifidan so'ng amalga oshirildi. O'sha yili shaharning Temir yo'l vokzali — Sarterpa massivi yo'nalishida tramvay qatnovi yo'lga qo'yildi. Ko'p o'tmay Temir yo'l vokzali — Siyob dehqon bozori orasida 2-oy'nalish ochildi. Kelgusida shahar markazidan Kimyogarlar qo'rg'onigacha tramvaylar qatnaydigan bo'ladi.

Ayni paytda shaharda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki loyihasi asosida olingan 100 ta elektrobuss aholiga xizmat ko'rsatmoqda. 2025-2026-yillarda yana 250 ta shunday transport vositasi keltiriladi va shahar to'liq ekologik toza jamoat transportiga ega bo'ladi.

2022-yili shaharning Bo'stonsaroy va Rudakiy ko'chalari kesishmasida tunnel qurilishi katta-yu kichik hammaning dunyo-dunyo quvonchiga sabab bo'ldi. Chunki Bo'stonsaroy ko'chasining Siyob kanali ustidan o'tgan qismi ancha past bo'lib, yog'ingarchilik paytida transport va piyodalar uchun noqulaylik tug'dirardi. Shu bois yo'l 23 metr gacha ko'tarilib, eni 31 metr kengaytirildi. Yo'lning ikki chetiga himoya vositasi, shovqin kamaytiruvchi to'siqlar o'rnatildi. Piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etildi.

2024-yilda Abu-Dabi taraqqiyot jamg'armasining 300 million dollarlik kredit mablag'i hisobidan Amir Temur va Gagarin ko'chalari 10 kilometrdan ortiq yo'l rekonstruksiya qilinib kengaytirildi, piyodalar yo'laklari qurildi.

Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida umumiy uzunligi 440 metr, inshoot uzunligi 44 metr bo'lgan tunnel qurildi.

Ayni paytda Gagarin va Rudakiy ko'chalari kesishmasida yana bir tunnel qurilishi davom etmoqda.

6

Ha, shoirona tashbeh bilan ifodalasak, bugun Samarqandda "chappar urib gullagan bog'lar" kun sayin, soat sayin ko'payib bormoqda.

Hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy majmuasining tamomila yangidan bunyod etilayotgani, bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabining



Abdusaid KO'CHIMOV, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

tashkil etilgani, maqbara maydoni 600 kvadrat metr, balandligi 28 metr etib kengaytirilgani, 10 ming kishiga mo'ljallangan masjid bunyod etilgani, majmuaning to'rt burchagidagi 75 metrlik minoralar unga ilohiy ulug'vorlik bag'ishlab turgani kimni quvontirmaydi, deysiz.

"Yaqinda Madina shahrida bo'lganimizda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning siyratlari va islom sivilizatsiyasi muzeyini ko'rdik. Bu yerda ham shunga o'xshash muzey tashkil etsak, yaxshi bo'lar edi. Unda Imom Buxoriy bobomizning hayoti, ilm yo'li, o'sha davr tarixi axborot texnologiyalari orqali ko'rsatiladi. Bulur yoshlar, chet ellik sayyohlarning yaqqol tasavvurida qoladi. Muzey xalqimizga yana bir ma'haviy xazina bo'ladi", degan edi davlatimiz rahbari.

Imom Buxoriy majmuasi chin ma'noda buyuk ma'naviyatimizning muazzam ustunlaridan biriga aylanib borayotir.

Bundan tashqari, Hazrat Xizir majmuasida qurilgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov maqbarasi, Universitet xiyobonidagi Konfutsiy maydoni, shahar ko'chalarini obod qilib turgan ko'priklar, tunnellar, mehmonxonalar, biznes markazlari, tumanlarda Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Germaniya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar...

Samarqand jamolini mufassal idrok etmoq uchun, yana ayrim raqamlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Diqqat qiling, o'tgan yili viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 99,9 trillion so'mga yetdi va avvalgi yildagiga nisbatan 6,9 foizga o'sib, 52,9 trillion so'mga ko'paydi. Aholi jon boshiga hisoblaganda, bu ko'rsatkich 1,9 million so'mga oshdi.

Sanoat mahsulotlari hajmi — 7,6, qishloq xo'jaligi mahsulotlari — 2,7, xizmatlar 14,1, qurilish-pudrat ishlari 11,7 foiz o'sdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmi 2023-yilda 7,7 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 10,8 million so'mga

Konferensiya Odam savdosiga qarshi mintaqaviy hamkorlik

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov 30-31-iyul kunlari Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida "Odam savdosiga qarshi kurashishda milliy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" mavzuida o'tkazilgan mintaqaviy konferensiyada ishtirok etdi.

Tadbir doirasida odam savdosi murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida ko'rib chiqilib, uning transmilliy uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq jihatlari muhokama qilindi. Anjumanda mintaqadagi vaziyat, qabul qilingan chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlikning ahamiyati va qo'shma yechimlar yuzasidan fikr almashildi.

Konferensiyada O. Mamatkarimov odam savdosiga qarshi kurashish masalasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar haqida batafsil ma'lumot berdi. Xususan, ushbu sohada qonunchilik bazasi takomillashtirilgan, jinoyi javobgarlik kuchaytirilgan, jабrланuvchilarni aniqlash bo'yicha milliy tizim joriy qilingani ta'kidlandi.

Bunda Oliy Majlis Senati Raisi rahbarligidagi milliy komissiya faoliyati, milliy ma'ruzachi instituti, xalqaro konvensiyalarning implementatsiyasi va mintaqaviy hamkorlikning kuchaytirilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buxoro deklaratsiyasi va uning asosida tashkillashtirilayotgan an'anaviy konferensiyalar bu sohada samarali platformalardan biri ekani alohida ta'kidlandi.

Anjuman yakuni bo'yicha odam savdosiga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, axborot va tajriba almashish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish borasida aniq maqsadlar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

Muloqot

QONUN TALABLARIGA RIOYA QILINMAYOTGANI AHOLI E'TIROZIGA SABAB BO'LMOQDA

So'nggi paytlarda Toshkent shahri elektr energiyasi ta'minotida uzilishlar ko'paygani aholining kundalik hayoti, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shu bois aholi va tadbirkorlar tomonidan elektr ta'minotidagi 3-4 soatlik uzilishlar bo'yicha ko'plab murojaatlar bildirilmoqda. Ushbu uzilishlar nafaqat fuqarolarning kundalik turmush tarziga, balki tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy infratuzilma obyektlarining barqaror ishlashida ham muammolar yuzaga kelyapti.

Xususan, svetoforlar faoliyatidagi uzilishlar transport harakatini tartibga solishda qiyinchilik tug'dirmoqda, bu esa yo'l harakati xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish va savdo obyektlarida sovitish tizimlarining ishdan chiqishi natijasida yirik moliyaviy zararlar yuzaga kelayotgani, xonadonlarda esa maishiy texnika vositalarining ishdan chiqishi holatlari aniqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonunining 39-moddasiga ko'ra, elektr energiyasi iste'molchilari sifatida va barqaror elektr energiyasini olish huquqiga ega. Ushbu qonunning 61-moddasida belgilanishicha, ta'minotni to'xtatish yoki cheklash faqatgina baxtsiz hodisalarning oldini olish yoki avariyalearni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

Shu munosabat bilan Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyor Abdikarimova tomonidan tegishli tushuntirishlar berish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri Ro'jabek Mirzamahmudov nomiga senator so'rovi yuborildi.

Unda yuqoridagi qonun talablariga rioya qilinmayotganligi aholining haqli e'tiroziga sabab bo'layotgani tufayli asosli tushuntirish berish so'ralgan.

"Xalq so'zi".

SAYLOVCHILAR OLDIDAGI BURCH VA MAS'ULIYAT

Xalq vakillari muassasa faoliyati bilan yaqindan tanishib, kelgusida uni yanada kengaytirish, guruhlari sonini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha ham qo'shimcha takliflarini bildirdi.

Shuningdek, bog'chaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, pedagoglarning malakasini oshirish masalalarida davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Issiqxonalar — daromad manbai, iqtisodiy barqarorlik asosi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oybek Rahimov Qorako'l tumanidagi Zarafshon mahallasida istiqomat qiluvchi Olim Jumayevning xonadonida bo'ldi.

Dehqonchilikning nozik jihatlari o'zlashtirgan qorako'lik mohir dehqon o'z hisobidagi ekin yerlaridan mo'maygina daromad olayotganiga ko'pchilikning havasi keladi.

Darhaqiqat, Buxoro iqlimining har qanday inijliklariga qaramasdan oliyiv tadbirkor mo'jazzina issiqxonada limon, apelsin, banan, ko'p yillik gullar, ko'kat kabi o'nlab sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirib, ichki bozorga tortiq qilmoqda.

— Issiqxonalardan bir yilda o'rtacha 70 — 80 million so'm sof daromad qilyapmiz va ichki bozorga mahsulot yetishtirib beryapmiz, kelajakda sohaning rivoji uchun yangicha imkoniyatlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni rejalashtirganimiz, — deydi tadbirkor.

Shuningdek, u har qarich yerdan unumli foydalanish oliyiv byudjetga, xonadonga baraka olib kelishini qayd etgan holda, deputatning bu boradagi tavsiyalarini mamnuniyat bilan qabul qilishini aytdi. Tadbirkor kuni kecha issiqxona tarmog'i uchun yaratilgan yangi imtiyozlarni alohida e'tirof etib, xususan, bundan buyon issiqxonalar, toifasidan qat'i nazar, yer solig'ini qishloq xo'jaligi yerlari stavkasida to'lashi belgilanayotganidan mamnun ekanini bildirdi.

Deputat suhbat chog'ida davlatimiz rahbari raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko'paytirish masalalari muhokamasida bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda doimiy nazorat-tahlil tadbirlari olib borilishini ta'kidledi.

Dala chetidan yuqori hosil olish reja qilindi

Qonunchilik palatasi deputati Tahir Polvonov o'z saylov okrugini faoliyat yuritayotgan fermerlar bilan muntazam uchrashib, ularning muammolarini o'rganmoqda.

Xususan, u Yangiariq tumanidagi "Komiljon Ro'ziyov" fermer xo'jaligida bo'lib, dala chetlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha joriy etilayotgan yangi tartibning mazmun-mohiyati, sug'orish, texnika, kredit va bozor infratuzilmasi bo'yicha aniqlangan masalalar yuzasidan fermer Murod Ro'ziyov bilan suhbatlashdi.

Muloqot chog'ida yaqinda dala chetidan unumli foydalanish bo'yicha belgilangan tartib-taomillar bitta maqsadga, avvalo, har qarich yerdan hosil olish, pirovardida ichki va tashqi bozorni qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi.

O'z navbatida, fermer ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlashini, ayni vaqtda dala chetiga ekin ekish va yuqori hosil olishni rejalashtirayotganini, bu kelgusida aholining farovon turmushi yo'lida muhim vositaga aylanishini aytib o'tdi.

Deputat fermerlar bilan uchrashuv chog'ida qishloq xo'jaligida daromadni oshirish, eksportni

rag'batlantirishga oid takliflarni ham "yon daftari"ga qayd qilib oldi.

Ayrim masalalar nazoratga olindi

Qonunchilik palatasi deputati Dilmurod Ismoilov Namangan shahrida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Xususan, deputat "Ravnaq" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, "mahalla yetiligi" faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mas'ullar bilan mahallada o'z yo'nalishlarida olib borilayotgan yumushlar, jumladan, aholi bandligini ta'minlash, oilalar daromadini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar holati o'rganildi.

Muloqotlar chog'ida mahallada alohida ma'muriy bino mavjud emasligi, faoliyat hozirda vaqtinchalik viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining talabga javob bermaydigan binosida amalga oshirilayotgani ma'lum qilindi.

Mahallaning Temir yo'l ko'chasida istiqomat qiluvchi fuqarolar esa eskirgan transformator tufayli elektr ta'minotida uzilishlar kuzatilayotganini ta'kidlab, ushbu masalada amaliy yordam so'rab murojaat etishdi. Mazkur masalalar yechimi deputat nazoratiga olindi.

Shundan so'ng deputat "Dashtbog" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, keng jamoatchilik vakillari bilan uchrashdi. Muloqotlar davomida aholi muammolari, taklif va mulohazalari tinglandi, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Ona tabiatga mehr bolalikdan boshlanadi

Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'yab "Ona tabiatini asrash" shiori ostida amalga oshirilayotgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasidagi ishlar izchil davom etmoqda. Xususan, G'uzor tumanidagi 29-davlat maktabigacha ta'lim tashkilotida yozgi ta'til kunlari bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashtirish, ularning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati va ekologik madaniyatini yuksaltirish maqsadida qator qiziqarli va tarbiyaviy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Noiba Inoyatova ana shunday tadbirlardan birida ishtirok etdi. Mazkur ta'lim dargohida 1 700 tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari parvarishlanmoqda.

Shuningdek, polietilen chiqindilarni yig'ish maqsadida maxsus idish tayyorlangan. Atrofdagi bir martalik plastik buyumlar ushbu idishga to'planib, bolalarda chiqindilarni saralash ko'nikmasi shakllantirilmoqda.

Deputat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologiyaga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliy natijalarga qaratilganiga urg'u berib, ular bolalarda ijtimoiy va tabiiy muhitda ekologik jihatdan to'g'ri xatti-harakatlar, yer resurslariga tejamkor munosabatda bo'lish ko'nikmalarini singdirishga xizmat qilishini alohida ta'kidledi.

Huquqiy tushuntirish berildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oydin Abdullayeva poytaxtimizning Sergeli tumanidagi bir qator mahallalar va ijtimoiy soha obyektlarida o'rganishlar olib bordi.

Deputat dastlab Uchuvchilar hamda Oltin vodi mahallalaridagi "mahalla yetiligi" faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Oltin vodi mahallasida yashovchi fuqaro M. A. doimiy ravishda oila a'zolari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka uchratayotgani haqida murojaat qildi. Deputat ushbu masalani joyida o'rganib, nazoratga oldi va oila a'zolariga huquqiy tushuntirish hamda tavsiyalar berdi.

Mustaqillikning 34 yilligiga

INSON, UNING HAYOTI, ERKINLIGI, SHA'NI — OLIY QADRIYAT



Inson — aziz, umr — oliy ne'mat. Har kim baxtli yashashga, farovon turmush kechirishga birdek haqli. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi.

samarasi so'nggi yillarda har doimgidan oydinroq ko'zga tashlana boshladiki, Istiqbolimizning 34 yillik bayrami arafasida bu haqda kengroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Eng avvalo, ulug'vor maqsadlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz orqali mustahkam huquqiy asos yaratildi. Zotan, Bosh qomusimizda avvalgi tahrirdan farqli ravishda "davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasi yangi: "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgartirildi. Shu tariqa asosiy g'oya shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga yo'naltirildi.

Asosiysi, bu g'oya hayotga manzilli va maqsadli loyihalar shaklida ta'biq etilayotgani natijasida fuqarolarning real daromadlari oshib, turmush farovonligi yuksalishida, iqtisodiy ahvoning yaxshilanishi va yuksak xalqaro e'tirofda o'z aksini topmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi

doirasidagi hayotiy islohotlar fikrimiz tasdig'i bo'la oladi.

Birgina joriy yilning o'tgan davrida dasturimiz birinchi — har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish yo'nalishida muhim islohotlar hayotga ta'biq etildi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish mushkul bo'lgan chekka hududlar aniqlangan. Sir emaski, bola tarbiyasida ayni davr eng muhim sanaladi. Yurtimizning qay manzilida bo'lishidan qat'i nazar, har bir bola sifatli ta'lim-tarbiya olish huquqiga ega. Ushbu huquqlarni ta'minlash maqsadida shunday manzillardagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinganligi tahlil qilinib, 11 ta viloyatning 29 ta tumanidagi 60 ta MFYning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ularda mobil guruhlari tashkil etilishi maktabgacha ta'lim bilan qamrovning maqsadli ko'rsatkichlariga yetishda muhim qadam bo'ladi. Zero, Prezidentimizning 2024-yil 24-sentyabr-dagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham 2025-yil yakuniga qadar respublikadagi kambag'al oilalarning 3 — 7 yoshli bolalarini maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish belgilangan.

Davlat dasturi ijrosi doirasida tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili fani o'qituvchilariga ularning tarifi stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo'shimcha ustama to'lanishi yo'lga qo'yildi. E'tiborlisi, shulardan 1 698 nafari o'zbek tili fani pedagoglaridir.

Shuningdek, Yoshlar bandlik dasturi asosida yigit-qizlarning 149,9 ming nafarini ishga joylashtirish, 69,2 mingga yer maydonlari, 30,5 mingga subsidiya asosida asbob-uskuna, 103,1 ming nafariga kredit mablag'i ajratish hamda 22,1 mingini kasbga o'qitish orqali bandligi ta'minlandi.

Bulardan anglashiladiki, muammoga manzilli va rejali yondashuvga mazkur yo'nalishlarda keltirilgan ko'rsatkichlar yaqqol misol bo'la oladi. Quvonarlisi, aynan muammoni aniqlash va uning yechimiga tizimli yondashuv ko'nikmasi jamiyatda shakllanganidir. Xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori baholanib, bunda siyosiy irodaning mustahkamligi va qat'iy yetakchilik asosiy omil sifatida ko'rsatilayotgani diqqatga sazovor, albatta. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha erishilgan natijalarga xalqaro ekspertlar alohida e'tibor qaratayotgani bu boradagi sa'y-harakatlar natijasida deydish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va qat'iyati tufayli ro'yobga chiqarilayotgan tizimli islohotlar orqali mustaqillikning navbatdagi qutlug'i sanasi ostonasiga katta natijalar bilan yaqinlashmoqdamiz. Bu esa yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadi uchun tanlagan yo'limizdan og'ishmay omdilayotganimizni, ajdodlarimizdan meros insoniy qadriyatlar islohotlarimizda chinakam aks etayotganini anglatadi.

Zuliyaho AKRAMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Munosabat

Oziq-ovqat xavfsizligi dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki aholi soni izchil o'sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb bo'lib bormoqda.

Global iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo'jaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yurtimizda bu masala davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotir.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH — ASOSIY MAQSAD

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi rivojiga berilayotgan yuksak e'tibor, sohaga doir qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar barqaror rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilayotir.

2025-yil mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingani va joriy davlat dasturi sohani barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida "yashil" texnologiyalarni qo'llash, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Sohaga ilg'or agrotexnologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari ham keng joriy etilayotgani ijobiy natija beryapti. Masalan, keyingi uch yilda 250 ming gektar paxta va g'alla maydoni oziq-ovqat yetishtirishga berilib, 160 ming gektar yangi bog' va tokzor barpo etildi. Eskirgan 107 ming gektari yangilangan holda, 1 mlrd. dollarlik 1,5 mingga oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Yuz ming tonnalik saqlash, 70 ming tonnalik quritish, 46 ming tonnalik saralash va qadoqlash quvvatlari yaratildi. Natijada o'tgan olti oyda oziq-ovqat eksporti 44 foiz o'sib, 1 mlrd. 326 mln. dollarga teng bo'ldi. Eksport geografiasiy esa 16 ta davlatga ko'paydi.

Har o'ning oxirgi haftasida hududlarda bo'lib, tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklari faoliyati bilan yaqindan tanishimiz. Nazorat-tahlil tadbirlari doirasida ham ularning fikr-mulohazalari, takliflarini eshitamiz. Fermerlarning davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yo'lida qilyotgan mehnatlari, bozorlarimiz to'kinligiga qo'shayotgan hisssasi e'tiborga molik.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgani, jumladan, o'tgan oyda O'zbekiston BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti — FAO Kengashi a'zoliciga saylangani ham mazkur tarmoqda o'z vaqtida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu a'zo davlat sifatida yangi xalqaro tashabbuslarni ilgari surish va investitsiyalarni jalb etishda mamlakatimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochadi.

Prezidentimiz raisligida 30-iyul kuni o'tkazilgan videoselektor

Biz partiyamiz elektorati bo'lgan tadbirkorlar va fermerlar uchun muhim sanalagan mazkur masalalarda, jumladan, qonunlarni takomillashtirish va ijrosini ta'minlash borasida hukumat idoralari bilan faol hamkorlikda ish olib borishimiz zarur.

Aktam HAITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari.

MAMLAKAT TARAQQIYOTINING LOKOMOTIVI

“Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan barpo etilayotgan yangi temir yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, stansiya va vokzallar, aholi va tashkilotlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar xalqimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish, mamlakatimiz tranzit salohiyatini oshirish, iqtisodiyotimiz tarmoqlari va ijtimoiy obyektlarning bir maromda ishlashini ta'minlashda, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyatga ega” deyiladi tabrikda.

E'tirof etish kerakki, mehnatkash



soha xodimlari joriy yilgi kasb bayramini katta bunyodkorlik loyihalari bilan kutib olishayotir.

Gap shundaki, ayni paytda 196,12

kilometrlik Miskin — Nukus temir yo'li yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar uchun moslashtirilib, elektrlashtirilmoqda. Navoiy —

Buxoro yo'nalishida yuqori tezlikda moslashtirilgan 92,1 kilometrlik ikkinchi elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasi bunyod etilyapti. Samarqand — Urgut

yo'nalishida 55 kilometrlik hamda Baytqo'rg'on — Parkent oralig'ida 23,8 kilometrlik yangi elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalari qurilayotir.

Ushbu loyihalar sharofati bilan, eng avvalo, mamlakatimizning turizm salohiyati va jozibadorligi yanada oshadi. Qolaversa, yuk va yo'lovchi tashish tezligi bir necha barobar ortib, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati tubdan yaxshilanadi.

Shu o'rinda aytish joizki, yurtimizda yuk va yo'lovchi tashish hajmining katta qismi temir yo'l tarmog'iga ulushiga to'g'ri keladi. Birgina joriy yilning dastlabki olti oyida temir yo'l transporti orqali 5,3 mln. yo'lovchi, 51,6 mln. tonna asosiy turdagi yuklar tashilib,

barqaror o'sish sur'atlari ta'minlangani buning yorqin tasdiqidir.

Kasb bayramining madaniy tadbirlari Temiryo'lovchilar madaniyat saroyida davom etib, taniqli san'atkorlar va yosh ijrochilarning konsert dasturi namoyish etildi.

Temir yo'l transporti sohasidagi uzoq yillik samarali mehnati uchun bir guruh fidoyilar “Faxriy temiryo'lovchi” ko'krak nishoni, shuningdek, “Temir yo'l hamkorlik tashkiloti” qo'mitasining “Faxriy diplomini”, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar temir yo'l transporti Kengashining “Faxriy yorlig'i” bilan taqdirlandi.

“Xalq so'zi”.



NURAFSHONDAN NOMALAR

PIYODALARGA QULAYLIK YARATUVCHI INNOVATSION TIZIM

Nurafshon shahrida mamlakatimizda ilk marotaba sun'iy intellekt yordamida ishlovchi piyodalar o'tish joyi jhozlandi. Harakat xavfsizligini ta'minlash va yo'lovchilar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishining oldini olish maqsadida piyodalar uchun zamonaviy o'tish joyi shu zaylda sinovdan o'tkazilayotir.

Mazkur innovatsion tizim orqali kunning kechki va tungi vaqtlarida yo'lni kesib o'tayotgan piyoda to'g'risida transport vositasini boshqarib kelayotgan shaxslarga ma'lumot beriladi. Ekranida paydo bo'lgan “Diqqat, piyoda!” yozuvi haydovchini hushyorlikka chaqirib barobarida uning uchun to'xtash ishorasini ham beradi.

Bundan tashqari, asfaltda maxsus yoritqichlar yordamida “5.16.1” va “5.16.2” yo'l belgilarning aksi tushiriladi hamda piyodalar o'tish joyidagi “zebra” chizig'i yorishadi. Bu esa yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun xizmat qiladi.

Mutaxassislar mazkur tizim o'zini oqlagan taqdirda viloyat va respublikaning boshqa hududlarida ham o'rnatilishi ko'zda tutilganini ta'kidlamog'ada.

SHODLIK “AQLI” MAHALLAGA AYLANMOQDA

Bo'ka tumanida tabiiy gaz ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida raqamli texnologiyalar joriy etilayotir.

Tumanda 143 ta gaz taqsimlash punkti mavjud bo'lsa, ularning 37 tasi yuqori bosimda va 106 tasi o'rta bosimda iste'molchilarga “zangori olov” yetkazib beradi. Shu kunlarda barcha gaz taqsimlash punkti qayta ko'zdan kechirilib, aholining ma'nan eskirgan gaz uskunalarini zamonaviy va energotejamkor dastgohlarga almashtirilmoqda. Xususan, 7 ta eski gaz taqsimlash punkti o'rniga yangi turdagi uskunalar o'rnatildi. Hududdagi yer usti gaz quvuri holati o'rangi, 18,5 kilometrlik qismiga rang berildi.

Shodlik mahallasida “aqli” mahalla loyihasi doirasida gaz ta'minotini tubdan yangilashga erishiladi. Bunda Parkent tajribasi asosida har bir mahalla va ko'cha boshining kirish qismida hisoblash uskunasi o'rnatish ko'zda tutilgan.

MILLIY LIBOSLAR DOIM URFDA

O'rta Chirchiq tumani tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi sog'liqni saqlash muassasalariga borsangiz, sizga milliy libosdagi xodimlar tibbiy xizmat ko'rsatadi. Bu orqali shifokorlar milliy qadriyatlarimizni saqlash va nomoddiy merosimizni avaylash, pirovardida yosh avlod qalbida milliy g'ururni shakllantirishga hissa qo'shmoqda.

— Milliy liboslar — xalqimizning boy tarixi, urf-odatlarini va an'analarning ifodasi, ajdodlarimiz didi hamda estetik qarashlarining yorqin aksidir. Ular nafaqat tashqi ko'rinish, balki milliy ruh va o'ziga xoslik timsoli hamdir. Shu bois bugungi kunda yoshlar orasida milliy liboslarga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularning jozibasini keng targ'ib etish nihoyatda muhim. Buning uchun oz bo'lsa-da, hissa qo'shayotganimizdan behad mamnunmiz, — deydi tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika katta hamshirasi Umida Bahovuddinova.

Milliy libos kiyish — milliy o'zlikni namoyon etish demak. Shunday ekan, milliy libos doimo urfda!

Otabek ISROILOV
 (“Xalq so'zi”).

ISHONCHNI OQLAMAGAN
“ISHONCH TELEFONI”

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimlil avlodga bog'liqligini, har tomonlama keng dunyoqarashga ega vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitni yaratish zarurligini bot-bot ta'kidlab keladi. Shu yil 15-may kuni davlat rahbari raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bunga yana bir bor alohida e'tibor qaratildi.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Chindan ham, so'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasini isloh qilish va uni jahon andozalari talablariga moslashtirish, yoshlarning sifati ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tizimning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamlil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, maktabgacha va maktab ta'limi uchun ajratiladigan mablag'lar 7 karra oshirilib, joriy yilda 60 trln. so'mni tashkil qildi.

Lekin farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga mablag'larni ayamayotgan bo'lsak-da, maktablarni ta'mirlashda ota-onalardan pul yig'ish holatlari bilan bog'liq norozilik chiqishlari ijtimoiy tarmoqlarda ko'zga tashlanib turibdi. Holbuki, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi maktablarda ota-onalardan pul yig'ish noqonuniy ekanini, bunday holatga duch kelinsa, vazirlik “Ishonch telefoni” va boshqa manbalariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish mumkinligi haqida ogohlantirib keladi.

Xo'sh, nega ota-onalar “Ishonch telefoni” qolib, o'z shikoyatlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylamog'ada? Ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida vazirlikning 71-202-09-09 raqamli “Ishonch telefoni”ga qo'ng'iroq qildik. Dastlab “operator javobini kutish” uchun 20-bo'lib navbatga qo'yildik. “Sizing qo'ng'irog'ingiz biz uchun muhim” degan ta'kidlanib so'ng yuqimlil musiqaga yangray boshladi. Va o'z navbatimizni sabr-toqat bilan kuta boshladik.

...Yuqimlil musiqalar orasida navbatimiz 18, 16, 13, 8-o'rinda ekanini eslatib turildi. Va... roppa-rosa 27 daqiqadan keyin “Biz bilan muloqotda bo'lganingizdan xursandmiz. Xayr, salomat bo'ling” degan ovoz eshitildi va aloqa uzildi. Qariyb yarim soat musiqaga tinglaganimiz qoldi... Bu kulgili, lekin aslida juda achinarli holat.

Shundan keyin vazirlikning Axborot xizmati rahbari Dilfuza Sobirovaning telegram kanaliga ulanib, unga maqsadni tushuntirdim. Buni qarangi, ko'p kuttirib qo'ymasdan, tegishli ma'lumotni taqdim qilishdi. “Ishonch telefoni”ga shuncha vaqtimiz bekor ketganiga achindik.

Maktab ta'miri kimning zimmasida?

Vazirlikdan berilgan ma'lumotda keltirilishicha, ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash borasida o'quvchi va tarbiyalanuvchilar hamda ularning ota-onalaridan turli pul mablag'larini yig'ish taqiqlanadi va bu masala vazirlikda alohida nazoratga olingan.

Bundan tashqari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tizim hududiy bo'linmalari rahbarlari va mas'ul xodimlari, ta'lim tashkilotlari mutasaddilari, pedagoglar o'quvchilar yoki ularning ota-onalaridan (ta'mirlash ishlari, turli tadbirlar va bayramlar uchun) pul yig'ish holatlariga yo'l qo'yimaslik bo'yicha doimiy ogohlantirib kelinadi. Tizimda korumpsiyaga qarshi kurashish va huquqiy-nazorat tuzilmalari tomonidan barcha maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida doimiy profilaktika tadbirlari tashkil etib

kelinmoqda. Maktablarda ota-onalardan har xil bahonalar bilan pul yig'ish holatlarining oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbirlari kuchaytirilgan. Ta'lim muassasalarining kirish eshiklariga korumpsiyaga qarshi kurashish bo'yicha turli ko'rinishdagi ogohlantirish bannerlari joylashtirilgan.

Vazirlikning Axborot xizmati tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra “Ishonch telefoni”ga ota-onalardan kelib tushgan murojaatlar soni joriy yilning 1-avgustigacha 669 tani tashkil qilgan. Ushbu murojaatlar vazirlikning tegishli bo'linmalari tomonidan nazoratga olingan hamda hududiy mas'ul xodimlar tomonidan manzilli o'rganilyapti.

Umumiy ta'lim muassasasi xarajatlarini qoplash uchun ota-onalardan pul yig'ib olish amaliyotining qonuniy yoki qonuniy emasligini muhokama qilishda shuni e'tiborga olish kerakki, Prezidentning 2022-yil 11-maydagi “Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-

daromadlar, tashkilotlar, ota-onalar va boshqa fuqarolarning ixtiyoriy badallari, bank krediti va boshqa tushumlardan iborat. Maktab kam ta'minlangan oilalarning bolalariga umumiy ta'lim fondi, maktab fondi mablag'lari hisobidan darsliklar, o'quv-yozuv qurollari, kiyim-bosh, oyoq kiyimlari sotib olishda va tekni yoki imtiyozli o'vqatlanishni tashkil etishda moddiy yordam ko'rsatadi. Bunda ota-onalar, homiyilar va boshqalar maktab fondiga majburiy emas, balki ixtiyoriy ravishda moliyaviy ko'mak berishi mumkin!

Ko'pchilik ota-onalarga ma'lumki, ba'zi maktablarda sinf fondi uchun har oy falon ming so'mdan, maktab fondi uchun esa yana alohida pul yig'iladi. Shuningdek, sinfni ta'mirlashdan tashqari, turli bayram tadbirlarini o'tkazish, o'qituvchilarga sovg'a berish va hokazo uchun ham pul yig'ish holatlari uchraydi. Xo'sh, bunday holatda ota-onalardan pul yig'ib olinishi ixtiyoriylikka kiradimi yoki majburiylikkani? Ijtimoiy tarmoqlardagi noroziliklardan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu pullarni hamma ota-onalar ham ixtiyoriy berayotgani yo'q. Albatta, maktabga homiylik yordami ko'rsatish sharafli ish. Lekin besh qo'l barobar emas — ba'zi oilalarning bunga qurbi yetmasligi mumkin. Ayniqsa, maktabda o'qiydigan farzandlari ko'p bo'lsa!

Ana shunday sharoitda ba'zi ta'lim muassasalarida hali ham ota-onalardan turli yo'llar bilan pul undirish holatlari uchray turishi, afsuski, bor gap. Pedagog pul bermagan bolani boshqa o'quvchilar oldida mulzam qiladi.

Vazirlikning Axborot xizmati tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra “Ishonch telefoni”ga ota-onalardan kelib tushgan murojaatlar soni joriy yilning 1-avgustigacha 669 tani tashkil qilgan. Ushbu murojaatlar vazirlikning tegishli bo'linmalari tomonidan nazoratga olingan hamda hududiy mas'ul xodimlar tomonidan manzilli o'rganilyapti.

tadbirlar to'g'risida”gi qarorining 13-bandi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga hududdagi maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash, qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash, ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, infratuzilmani (trotuarlar, yo'llar va boshqalar) zarur holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi funksiyasini amalga oshirish, o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga o'z vaqtida va samarali tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish va boshqa qator zarur vazifalar yuklatilgan. Zotan, maktabni ta'mirlash uchun ota-ona emas, hokimlar mas'ul.

Biroq masalaning boshqa tomoni bor. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomning 73-bandiga asosan davlat umumta'lim muassasalarini faoliyatini moliyalashtirish jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan taqiqlanmagan homiylik xayriyalari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Xo'sh, bu nima degani? Mazkur Nizomning VI bo'limida maktabning moliyaviy mablag'i Davlat byudjeti va maktabning boshqa manbalardan tashkil topuvchi o'z mablag'lari hisobiga shakllanishi ko'rsatilgan. Boshqa manbalar esa maktabning xo'jalik faoliyatidan, ko'rsatilgan pullik xizmatlardan, bino va jihozlarni ijaraga berishdan olingan

Ota-ona farzandi boshqa tengdoshlari oldida o'ksimasligi uchun aytilgan summani qarz olib bo'lsa ham to'laydi.

Hozir maktablarda ota-onalardan pul yig'ishning yangi-yangi usullari shakllanib boryapti. Masalan, birinchi sinfga boradigan o'quvchini maktabga qabul qilishda ota-ona zimmasiga ochiqdan-ochiq maktab fondi uchun pul o'tkazish yoki boshqa xizmatlarni amalga oshirish majburiyati yuklab qo'yiladi. Bunday imkoniyat bo'lmagan ota-onalar farzandlarini ushbu maktablarga elektron navbat orqali kiritishga urinib ko'radi, lekin bu yo'l bilan maqsadga erishish amrimahol.

Qayerda shunday bo'lyapti, manzilini aniq ko'rsating-chi dersi? Afsuski, bu jarayonni ko'rsatib ham, isbotlab ham bo'lmaydi! Isbotlangan taqdirda ham, farzandning maktabdagi taqdirini o'ylagan ota-ona o'z xohishi bilan moddiy yordam berganini, buning yomon joyi yo'qligini aytib turaveradi.

Modomiki, ota-ona ixtiyoriy ravishda maktab faoliyatiga moliyaviy ko'mak berayotgan ekan, bu jarayonning shaffofligi ta'minlanishi — mablag' maktab bank hisobiga o'tkazilishi, u qayerga va qancha ishlatilgani, qancha qolganig' hujjatlashtirilishi lozim. Maktab rahbariyati esa homiyilarga (ota-onalarga) tushgan mablag' qanday sarflangani haqida hisobot berishi kerak.

Maktab ma'muriyatiga ota-onalar tomonidan naqd pul to'langan taqdirda tilxat orqali rasmiylashtirilishi va ikki tomonlama imzolaniishi kerak. Aks holda bu mablag'larning qayerga

ishlatilgani, qanday maqsadlarga yo'naltirilgani noma'lum bo'lib qoladi. Bu hujjatlarining nazorat qilinmasligi muassasada korumpsiya holatlarini keltirib chiqaradi, jamoada muhit buziladi.

“Tashabbusli byudjet” mashmashalari

Mart oyining o'rtalari edi. Ishdan keyin metroning “Do'stlik” bekatidan chiqaverishda 5-6 nafar maktab yoshidagi bola “Ovoz yig'amiz, 15 ming so'mga ovoz yig'amiz” deb jar solyapti. Bunga ahamiyat bermasdan o'tib ketdik. Ertasi kuni Qo'lyig' mavzesida yana shunday holatga duch keldik. “Ovoz yig'amiz, 20 mingga ovoz yig'amiz”, deya tinmay qichqirardi bolalar. Ikki kundan keyin bitta ovoz 40 ming so'mga chiqib ketdi. Tushunib yetganimiz shu bo'ldiki, “Tashabbusli byudjet” boshlanibdi, yetarli ovoz olgan maktabga byudjetdan mablag' ajratilarmish.

Yaqinda esa ijtimoiy tarmoqlarda shu masala bo'yicha berilgan e'longa ko'ra bunday “ovoz”ni qo'lga kiritishni istaganlarga, “sovqat”ni to'laydiganlarga mingtargacha ovoz yig'ib berilmish, “o'rinlar cheklangan” emish. E, hayf-e! Qo'pol bo'lsa ham aytish joizki, bu ochiqdan-ochiq chayqovchilik, ko'zbo'yamachilik, o'qituvchining qadrini, ta'lim muassasasi obro'sini yerga urishdan boshqa narsa emas. Aslida maktab — muqaddas dargoh. Uni ta'mirlashga mablag' kerak bo'lsa, u hech qanaqa ovoz berishlarisiz ajratilishi kerak.

Yana bir holat. Yaqinda nevaramni birinchi sinfga berish uchun ma'lum fanlardan chuqurlashtirilgan ta'lim beradigan maktabga bordim. Hududi juda orasta, binolarga did bilan ishlov berilgan. O'quv xonalari, fan kabinetlari to'la jihozlangan, odamning havasi keladi. Bu maktabning reytingi juda baland bo'lib, bitiruvchilarning yarmidan ko'pi har yili oliy o'quv yurtlariga yuqori ballar asosida qabul qilinayotgan ekan.

— O'quvchilar soni ko'pligidan bu yil yana sinf xonalarini ko'paytiraymiz, — dedi maktab direktori faxr bilan. — Shu atrofda beshta maktab bor. Lekin ota-onalar farzandlarini buning maktabga bergisi keladi. Chunki bizda o'qituvchilar o'z ustida tinimsiz ishlaydi, o'quvchilarga saboq berishning eng zamonaviy usullarini qo'llaymiz. Xullas, barcha shart-sharoit o'quvchilarning kelajagi uchun xizmat qilmoqda.

Maktab o'tgan yillar ichida yetti marotaba “Tashabbusli byudjet” g'olibi bo'libdi. “Bunga qanday qilib erishildi?” degan savolimizga ochiqchasiga, “Ota-onalar ovoz yig'ib berishdi” degan javobni eshitdik...

Yuzaki qaraganda, risoladagiday xulosa. Ammo bu ajablanarli emasmi?

Tan olish kerakki, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi pedagoglar va ota-onalarni “Tashabbusli byudjet” doirasida ovoz yig'ishga majburlash va ularidan pul yig'ish noqonuniy ekanini ta'kidlab keladi. Agar pedagoglar shunday holatlarga duch kelsa, vazirlikka murojaat qilishlari mumkin degan takliflar ham berilgani rost gap. So'nggi yillarda bu borada murojaatlar soni kamaygan bo'lsa-da, ko'pchilik ta'lim muassasalariga rahbarlariga ko'rayotgan keskin choralar, ogohlantirishlar va qonuniy taqiqlar boshqalarga saboq bo'lmayapti. Bu holatda o'qituvchilarga ham qiyin, to'g'risi. Maktabimizga ovoz bering, deb yalinishga majbur. Dardini kimga aytishni bilmaydi. “Ishonch telefoni”ning “ishonchliligi” esa hammaga ma'lum...

Nurulloh OSTONOV
 (“Xalq so'zi”).

YANGI O'ZBEKISTON — BAXTIYOR MILLATLAR DIYORI

30-iyul — Xalqlar do'stligi kuni mamlakatimizda ko'tarinki ruhda keng nishonlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga bayram tabrigi

ayyom shukuhini yanada oshirdi. Bu bejiz emas, albatta. Xalqi o'zaro do'st, ahil-inoq mamlakatning tonglari tinch-osuda otadi. Osoyishta mamlakatga esa bayramlar yarashadi.

Shu aziz Vatan — barchamizniki

Darhaqiqat, to'y-ma'rakasiga qarindoshidan avval devordarmiyon qo'shnisini chaqiradigan, uyida borini u bilan baham ko'radigan xalqimiz. Qo'shnimiz qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, biz uchun yon qo'shni, mahalladosh bo'lgani uchun qadrlidi. Bu xalqimizning qadimiy qadriyatlaridan.

Prezidentimizning tabrigida ta'kidlanganidek, yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilmaxillik noyob ijtimoiy hodisa bo'lib, bugun — Yangi O'zbekiston sharoitida yangicha ma'no-mazmun va an'analarga ega bo'lib borayotgani diqqatga sazovordir. Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan Vatanimiz aynan shu asosda inson qadri va baxti ulug'lanadigan tom ma'nodagi tinchlik, do'stlik va mehr-oqibat diyoriga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarining yanada amin-erkin yashashlari uchun keng ko'lamli ishlar qilinmoqda.

Totuvlik — umuminsoniy qadriyat

Millatlararo totuvlik g'oyasi butun jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. U tinchlik va farovonlikning kafolati, millatlararo hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Mazkur g'oya har bir millat vakili orzu-umidlari, iqtidori va iste'dodining to'liq ro'yobga chiqishi uchun zamin hozirlaydi hamda uni Vatan istiqbolini, yurt tinchligini, xalq farovonligini kabi umuminsoniy maqsadlar sari yetaklaydi.

Mustamlakachilik 150 yil davom etgan O'zbekistonga kuchli assimilyatsiya qilinuvchi ijtimoiy makon sifatida qaralgan. Shu bois ham O'zbekiston hududini ko'p millatli makonga aylantirish bo'yicha tarixiy jarayonlar amalga oshirildi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1885-yilda hozirgi O'zbekiston hududida 18 ga yaqin millatlar istiqomat qilgan bo'lib, ularning 11 tasini mahalliy xalqlar vakillari, 7 tasini ko'chirib olib kelinganlar tashkil etgan. 1926-yilga kelib esa mahalliy mansubdagi millatlar 11 ta qolgan holda ko'chirib keltirilganlar 80 xil bo'lgan. 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123 taga, 1989-yilda esa 130 taga yetgan edi.

Joriy yilning 28-iyul holatiga ko'ra, doimiy aholisi soni 37 910 136 nafar kishini tashkil etayotgan yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari

ahil va inoq, bir-birlariga yelkadosh bo'lib yashab kelmoqda. Ularning har birini assimilyatsiya bo'lishdan saqlash siyosati yurguzilmoqda.

Hamjihatlikning huquqiy maqomi

Asrlardan-asrlarga o'tib kelgan millatlararo totuvlik an'analari bardavomligini ta'minlash maqsadida huquqiy asos yaratildi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida "Multikulturalizm" bahslari avj

O'zbekistonda har bir millat va elatning o'z tili, madaniyati, urf-odatlarini saqlab qolish, o'rganish va rivojlantirishiga shart-sharoit hozirlangan. Masalan, koreyslar o'z tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganib, milliy marosim va bayramlarini emir-erkin nishonlab keladi. O'zbek xalqining azaliy milliy taomlari: osh, qozon kabob, norin, halim, sumalak, somsa deyarli barcha koreys xonadonida tayyorlanadi va sevib iste'mol qilinadi. Koreyslarning "chimchi" va boshqa salatlarini o'zbeklarning dasturxonida ko'rish mumkin. Shuningdek, yurtimizda koreys filologiyasi 12 ta oliy ta'lim muassasasi, 48 ta maktab va litseyda o'qitilmoqda. Har ikkala xalq vakillari koreys filmlari yoki o'zbek filmlarini tomosha qilishadi, o'zbek va koreys tiliidagi qo'shiqlar sevib kuylanadi, eshitiladi.

Ummuxalq referendumida qabul qilingan Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan qoida va me'yorlar asosida nodavlat tashkilotlarning rolini oshirish, ularning huquqlarini kafolatlash orqali fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani ham bajarilayotgan ishlarining mantiqiy davridir.

Bugungi kunda nafaqat o'zbek millati, balki boshqa millat va elatlarning taniqli siymolariga bag'ishlab ko'chalar, istirohat bog'lari, turli muassasalarga nomlar berildi, monumentlar o'rnatildi.

Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Mazkur qo'mita jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda.

Poytaxtimizda millatlar va elatlarni hamjihatlikka chorlovchi "Do'stlik

olganda, O'zbekistonda yashayotgan har bir millatning urf-odatlarini, tili, dini, milliy qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Orziqib kutilgan fuqarolik baxti

Esilasak, agar bundan sakkiz yil avval O'zbekistonda fuqaroligi bo'lmagan ko'p odamlar o'zlarining masalalarini ham hal etolmay sarson-u sargardon yurardi — ularning fuqarolik huquqlari yo'q edi. Mana shunday notenglikka barham berildi. O'zbekistonda ko'p yillardan buyon yashab, mehnat qilib kelayotgan boshqa millat vakillariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasportlarini topshirish tizimi faoliyati ham diqqatga sazovor.

Masalan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 22-aprelda



imzolagan Farmoniga asosan 70 nafar koreys millatiga mansub yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi pasporti topshirildi. Va albatta, o'tgan yillarda bu raqamlar soni bir necha yuzdan ortdi. Bu esa ko'p yillar yurtda astoydil mehnat qilib, O'zbekistonimizni Vatan deb qadrlaganlar, o'z zuriyatini ulg'aytirib kelayotgan insonlarga yanada ko'tarinki ruh va kayfiyat bag'ishladi.

Ko'p yillik "muz"lar eridi

Mamlakatimiz chegaradosh davlatlar bilan yaqin hamkor, xalqlarimiz bir-biri bilan qondosh-qarindosh, quda-andali. Ammo avvallari yurtdoshlarimiz davlat chegarasidan o'tolmay, hatto yaqinlari ta'ziyasiga ham bora olmagani vaziyatlar bo'lgani sir emas. O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida bu kabi ko'ngilsizliklar barham topdi. Davlat chegaralari ochildi.

O'zbekiston Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlar bilan bir g'oya —

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkin, O'zbekistonda turli millat va elat vakillari o'zlarini erkin his etmoqda, o'zbeklar bilan birga qo'lni qo'lga berib ishlamoqda, yashamoqda. Bu bag'rikenglik yurtimizda asrlar davomida shakllanib kelgan boshqa xalqlarga samimiy, hurmat bilan munosabatda bo'lish borasidagi qadriyatlar, umuminsoniy qarashlarga tayangan holda yondashish an'anasidan kelib chiqadi. Qolaversa, mamlakatimizda barcha millatlar teng huquqliligi asoslanuvchi siyosat, ularning o'z tili, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini rivojlantirish uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar baxtli, tinch-totuv hayotning, farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

millatlar, xalqlar o'rtasida tinchlik, totuvlik, bag'rikenglik asosida yashash tamoyilini ilgari surmoqda. Buni chegaralar hududlarining erkinlashtirilgani, davlatlar rahbarlari tomonidan fuqarolarga siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa sohalarda qulay sharoitlar yaratib berilayotgani, insonlar qo'shni mamlakatda yashayotgan yaqinlari bilan uchrashib, diydorlashgani, borishi yoki kelish jarayonlarining jadallashganida ham ko'rish, kuzatish mumkin.

O'zbekistonning dunyo davlatlari, ayniqsa, qo'shni mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatganini, o'zaro tashriflar va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam qo'lini cho'zishni butunlay yangi bosqichga ko'targanini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kam sonli millatlar bo'yicha Oliy komissari Lamberto Zanyer shunday dedi: "...hozir mamlakatimiz o'z qo'shnilar bilan chegaralarni ochdi, odamlar emir-erkin yaqinlari ko'rganini borishyapti. Bu tashabbuslarning hammasi millatlararo munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yurtimizga O'sh orqali kirib keldik. Farg'ona vodiysida bo'lib, bu yerda turli tillarda o'qitiladigan maktablarga bordik, o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. O'zbekistonda ta'lim va boshqa sohalarda xalqaro kelishuvni ta'minlash bo'yicha holat ijobiylikka guvoh bo'ldik. Umuman, millatlararo munosabatlar yo'nalishida konstruktiv siyosat olib borilyapti. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatda bag'rikenglikni mustahkamlash yo'lida yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Ayni shu jarayonga bizning tashkilot ham munosib hissa qo'shishga tayyor".

Shu o'rinda aytish joizki, Fransiyaning "L'Usine Nouvelle" yangiliklar agentligi xabarida AQSH Davlat departamenti O'zbekistonda "Alohida xavotir uyg'otadigan davlatlar ro'yxati"dan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgani yozildi. "L'Usine Nouvelle" muxbirlarining fikricha, bu respublikada kechayotgan ijobiy o'zgarishlarning har tomonlama e'tirof etilayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha BMT doimiy komissiyasiga a'zo qilingani quvonarli holdir.

Obidjon HAMIDOV, Buxoro davlat universiteti rektori, professor.



HINDISTON VA AQSH HAMKORLIGIDA SUN'IY YO'LDOSH FAZOGA UCHIRILDI

30-iyul kuni Hindiston janubidagi Satish Dhavan kosmik markazidan "NASA-Isro Synthetic Aperture Radar" (NISAR) qurilmasi uchirildi.

NASA mutaxassisining ta'kidlashicha, og'irligi 2 392 kilogrammga teng ushbu ilg'or radar texnologiyasiga ega sun'iy yo'ldosh dunyo bo'ylab eng kichik o'zgarishlarni ham aniqlay oladi. Ya'ni u inson faoliyati — dehqonchilik, qurilish va infratuzilma loyihalari oqibatida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni ham qayd etadi. Loyiha qiymati 1,5 mlrd. dollarga teng.

Aytilishicha, bu loyiha "COVID-19" pandemiyasi davrida, olimlar bir-biridan minglab kilometr uzoqlikda ishlagan holatda amalga oshirilgan. Hindistonning fanlar bo'yicha vaziri Jitendra Singh "NISAR"ni "ilm-fanga asoslangan xalqaro do'stlik ramzi" sifatida ta'riflab, uni AQSH bilan strategik hamkorlikdagi birlashish nuqtasi, deya baholagan.

16 YOSH DAN KICHIK FOYDALANUVCHILAR "YOUTUBE" DA AKKAUNT OCHISHI MUMKIN EMAS

"Arab News" muxbirlarining xabar berishicha, Avstraliya kommunikatsiyalar vaziri Anika Uells 30-iyul kuni yosh chegarasini belgilashi kerak bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar ro'yxatini e'lon qilgan. Unga ko'ra 10-dekabr dan boshlab barcha platformalarda yosh chegarasi o'rnatilmasa, ularga 50 mln. Avstraliya dollarigacha jarima solinadi.

Mamlakat parlamenti 2024-yil noyabrda "Facebook", "Instagram", "Snapchat", "TikTok" va "X" kabi platformalarda 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning akkaunt ochishini taqiqlovchi qonunni qabul qilgan edi. Ammo bu ro'yxatda shu paytgacha "YouTube" mavjud bo'lmagan.

"Avstraliyalik bolalarning 40 foizi "YouTube"dan zarar ko'rgan. Biz bolalarimiz farovonligi uchun kurashda tahdidlardan qo'rqmaymiz", degan A. Uells.

SUDLANGAN SHAXSLAR YUQORI LAVOZIMLARDA ISHLAMAYDI

29-iyul kuni Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov "Qirg'iz Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Qayd etilishicha, qonunning maqsadi davlat hokimiyati organlariga fuqarolarning ishonchini oshirish, yuqori martabali shaxslar va maxsus maqomga ega davlat vakillari orasida benuqson obro'-e'tiborni shakllantirish, shuningdek, qonun ustuvorligini ta'minlashdan iborat.

Qonunga ko'ra endilikda sudlangan shaxslar mamlakat Prezidenti lavozimiga, Jogorku Kenesh deputatligiga, Vazirlar Mahkamasi raisi va boshqa ijro hokimiyati rahbarligiga, Markaziy saylov va referendumlar komissiyasi a'zoligiga, Milliy bank raisi, uning o'rinbosarlari va boshqaruv a'zoligiga, Hisob palatasi auditorligiga saylana olmaydi.

Bundan tashqari, diniy arboblarning o'z faoliyatlarini to'xtatgan kundan boshlab 5 yil ichida prezidentlik yoki deputatlik lavozimiga nomzod bo'lish huquqiga ega emas.

Qonun rasman e'lon qilingan sanadan o'n kun o'tib kuchga kiradi.

MAKTABLARDA 10 BALLIK BAHOLASH TIZIMI JORIY ETILADI

Tojikistonda yangi baholash tizimi joriy yilning 1-sentyabridan boshlab kuchga kiradi. Mamlakat ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzodaning ta'kidlashicha, yangi baholash tizimiga o'tish milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Hozirda yangilangan maktab jurnallari va boshqa hujjatlarini 10 ballik tizimga moslashtirish ishlari yakunlanayapti.

Mutaxassislar yangi tizim tojik maktablari bitiruvchilari xorijdagi oliy ta'lim muassasalariga kirishda duch kelayotgan ayrim to'siqlarni bartaraf qilishga yordam berishini qayd etishayotir. Shuningdek, u o'quvchilarning bilim yutuqlarini yanada aniq va moslashuvchan baholash hamda ularni o'qishga rag'batlantirish xononini beradi.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TO'LAGANOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

Tadbirkorlik harakatining kengayishi ishbiarmonlik salohiyatiga ega yurtdoshlarimizning yangidan-yangi tashabbuslariga yo'l ochmoqda. Uchqo'rg'on tumanining Istiqlol mahallasida istiqomat qilayotgan Tolibjon Xolmatovning intilishlari bunga misol.

EKOTURIZM VA AGRAR SOHA UYG'UNLIGI



Tabiatdan dehqonchilikka moyil bo'lgan inson ekoturizm va agrar sohani uyg'unlashtirgan holda yangilikka qo'l urdi. Uning mo'jazzina dalasida daromadli biznes — g'olubika o'simligi parvarishi yo'lga qo'yildi. — Belarus, Serbiya va Polsha davlatlaridan olib kelingan noyob "Golubika" (blueberry) navli rezavor mevaning mahalliy sharoitga moslab o'stiraymiz, — deydi T. Xolmatov. — Ayni paytda plantatsiyada 6 ming tup 2-3 yoshli hamda 300 tup 5-6 yoshli ko'chatlar yetishtirilmoqda. Ular uch yoshdan to'liq meva berishni boshlaydi.

Kudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

Reklama "Elektron Realtor" MCHJ to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillostiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi. "O'z sanoatqurilishbank" ATB bilan tuzilgan 2025-yil 18-iyundagi №18-2025ER sonli shartnomaga asosan "O'z sanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan quydagi mulk O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142 sonli qaroriga muvofiq sotuvga chiqarilmoqda: 1. Yunusobod tumanidagi "Turkiston" MFY, Moyqo'rg'on ko'chasi, 276-277-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi 6 mlrd. 435,8 mln. so'm. Savdoga qo'yilgan mulk bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin. Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-rieltor.uz" platformasi orqali ariza berishlari mumkin. Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

2026-yildan har ikki yilda 1-marta estrada san'ati bo'yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov o'tkazib boriladi. Xalq so'zi Narodnoe slovo. MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi. Bosh muharrir O'tkir RAHMAT. 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonzona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55. MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir S. Mamirov. Musahhib Sh. Mashrabboyev. "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.10 Topshirildi — 01.30 1 2 3 4 5 6